

جدید

2025-yil 28-noyabr
№ 48 (100)

www.jadid.uz



Tilda, fikrda, ishda birlik!

Jadid

adabiy, ilmiy-ma'rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta



@Jadidrasmiy



@Jadidmediauz



@Jadidrasmiy



@Jadid_uz

ONAJONIM - TABIAT



OGOHLIK QO'NG'IROG'I

Bugun jahon hamjamiyati iqlim o'zgarishini insoniyat oldida turgan eng jiddiy muammolardan biri deb tan olgani bejiz emas. Buning oqibatida oxirgi 20 yil ichida yer yuzida 4,5 milliardga yaqin odam yirik tabiiy ofatlardan jabr chekkani, 1,2 million kishi halok bo'lgani, iqtisodiy zarar esa qariyb 3 trillion dollarni tashkil etganini tasdiqlovchi ma'lumotlar bor.

Mutaxassislarning fikricha, Markaziy Osiyo mamlakatlari geografik joylashuviga ko'ra iqlim muammolariga ko'proq moyildir.

Masalan, oxirgi 50–60 yil ichida mintaqadagi muzliklar maydoni 30 foizga kamaygan. Haroratning

2 daraja ko'tarilishi muzliklar maydonining 1,5 baravar, 4 daraja ko'tarilishi 80 foizga qisqarishiga olib kelishi mumkin. Bashoratlarga ko'ra, 2050-yilga borib suv resurslari Sirdaryoda 5 foizga, Amudaryoda 15 foizgacha qisqaradi. Yerlarning degradatsiyasi va cho'llanishi ham inkor etib bo'lmas masalalardan. O'zbekiston va qo'shni davlatlar Orol dengizining qurishi, uning tubidan osmonga ko'tarilgan pestisidli changlarning ta'siridan aziyat chekib kelayotganiga ancha bo'ldi.

Ayni paytda havoning buzilishi jahon miqyosidagi ekologik muammolardan biriga aylanmoqda.

(Davomi 2-sahifada.) ➤

NUQTAYI NAZAR

BIZDAN HARAKAT...

Kimyo fanlari doktori, professor Rashid QULMATOV bilan suhbat

– Xabaringiz bor, Prezidentimizning “Toshkent shahrida ekologik vaziyatni yaxshilash bo'yicha kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlar to'g'risida”gi Farmoni e'lon qilindi. Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasidagi malakali olim sifatida suhbatni ushbu hujjatga munosabatimgizdan boshlasak.

– Farmon nafaqat Toshkent shahri, balki respublikamizdagi ekologik muammolarni yechishga qaratilgan tizimli ishlarining punktual yo'l xaritasidir. Unda belgilab berilgan vazifalar ijrosi ta'minlanishi natijasida poytaxtda ekologik vaziyat barqarorlashib, kelgusidagi “xuruj”larning oldi olinadi. Shu ma'noda, bu faqat reabilitatsiya emas, profilaktika ham demak.

Bugungi kunda Toshkent shahri havosining bu qadar ifloslanishiga nima sabab bo'lyapti? Buning javobi ham aynan yuqoridagi farmon bandlarida o'z aksini topgan. Ya'ni, cheklovlar va imtiyozlar turiga qarab, atmosferaga chiqarilayotgan gazlar, chang, kul va qurumlar manbasini aniqlash

mumkin. Ayrimlarini keltiramiz: avtotransport vositalari, sanoat korxonalari, issiqxonalar, qurilishlar...

Fikrimcha, elektromobillarga o'tish jarayonini tezlashtirish kerak. Ko'p mamlakatlarda, ayniqsa, Xitoyda bunga erishilgan. Masalan, o'n yil oldin Pekin dunyodagi atmosferasi eng iflos shaharlardan biri edi. Yaqinda Xitoyda ilmiy safarda bo'ldim – ijobiy o'zgarish bor. E'tibor bersam, yo'lda deyarli yuz foiz elektromobillar harakatlanmoqda. Bizda ham ushbu avtoulowlarga qiziqish ortib boryapti. Menimcha, uy olish uchun berilayotgani singari elektromobil xaridi uchun ham subsidiya joriy qilish mumkin.

Bunda aholidan ham harakat lozim. Imkon qadar shahar ichida jamoat transportlaridan foydalanish kerak. Eslasangiz, karantin davrida transport qatnovi keskin cheklangan edi. O'shanda havo shunchalik tozalanganki, Toshkent atrofidagi tog'lar, osmondagi yulduzlar ham ravshan ko'rina boshlagan.

– Domla, bu yo'lda ham, albatta, ilm-fan yordami va

olimlar xizmati zarur. Farmonda O'zbekiston Fanlar akademiyasi bejiz qayd etilmagan. Bugun qaysi mavzularda ilmiy izlanishlar olib boryapsiz?

– Shogirdlarimiz bilan olib boryotgan ilmiy ishlarimiz mavzusi – iqlim o'zgarishlari va suv resurslari bo'yicha. O'zbekistonning yirik daryolari, ularni muhofaza qilish va sof holda saqlash bo'yicha hozirda uch shogirdim doktorlik dissertatsiyasi ustida ishlayapti.

Bundan tashqari, sug'oriladigan yerlarning degradatsiyasi, sho'rlanishi masalalari ustida Sirdaryo, Jizzax, Navoiy viloyatlarida bir necha yil davomida ilmiy tadqiqotlar o'tkazdik. Juda yaxshi ilmiy natijalarga erishdik, xulosa va takliflarni tegishli tashkilotlarga taqdim etdik. Quvonarlisi, hozir ular amaliyotda qo'llanilyapti. Yerlarning sho'rlanishi O'zbekiston uchun juda katta muammo. Ayniqsa, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xorazm, Navoiy, Sirdaryo viloyatlarida hosildorlik 30–50 foizgacha kamayib ketadi.

(Davomi 2-sahifada.) ➤

FAKT

✓ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Prezident Olimpiadasining tantanali ochilishida ishtirok etdi.

✓ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti “Sindarov Javohir Sanjarbekovichga “O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan sportchi” faxriy unvonini berish to'g'risida”gi Farmonni imzoladi.

✓ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Gretsiya, Indoneziya, Latviya, Fransiya, Rossiya, Yaponiya va Tojikistonning favqulodda va muxtor elchilaridan ishonch yorliqlarini qabul qildi.

✓ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbari Saida Mirziyoyeva Qoraqalpog'iston Respublikasida bo'lib, hududda yangi tashkil etilgan ijtimoiy-iqtisodiy obyektlar, shuningdek, Sport gimnastikasi maktabi faoliyati bilan tanishdi.

BUGUNNING SHE'RI

JAVOHIRGA



Temurbekdan meros yurish – navodir,
Tafakkur jangida rutbang – bahodir.
“Bobosiga tortgan aqli” degaylar,
Sening yetmish yetti pushting dahodir.

Hind sori yuzlanib, yuzing oq bo'ldi,
Kingadir “vah!” bo'ldi, kimga “oh” bo'ldi...
Yurtboshi lafzidan yangradi xabar,
O'zbekiston uzra xush titroq bo'ldi.

Bizga muzaffarlik ruhi yarashgay,
Bo'laman deganga Xudo qarashgay.
Alpomish davridan kelayotgan yo'l:
Mard maydonda elin orin talashgay.

Senga tutganimiz gulmas, yurakdir,
Uch ming yillik lashkar mudom tirgakdir.
Davlatchilik qurgan xalqdagi udum:
Javohirga zarrin bir toj kerakdir!

Otabek BAKIROV

TAQDIMOT

QODIRIYGA QAYTIB...



O'zbekiston Milliy kutubxonasida o'zbek yangi adabiyotining asoschisi Abdulla Qodiriy qalamiga mansub “Tanlangan asarlar” to'plamining taqdimoti bo'lib o'tdi. Ilmiy-adabiy va tantanali ruhda tashkil etilgan anjumanni kutubxona rahbari Umida Teshaboyeva ochib berarkan, ulug' adibimiz qoldirgan o'lmas merosning umummilliy madaniyatdagi o'rni va bu kabi ma'rifiy uchrashuvlarning ahamiyati haqida to'xtalib o'tdi.

(Davomi 2-sahifada.) ➤

ABADIYAT ORALAB...



FITRATNING SEVAR GULI

Birinchi o'zbek professorining qizi
Sevargul KAROMATILLAXO'JAYEVA xotiralari

QISMATGA QASDLASHUV

Buxoroda tug'ilgan bo'lsam ham, juda kichikligimda Toshkentga ko'chib kelganmiz. Avval bizga berilgan xonadonda yashadik, keyin katta hovli sotib oldik. Hovli to'la gul-lar, daraxtlar edi. Afsuski, bu gulzor bizga nasib qilmagan ekan. 37-yilda otam qatag'on qilindi, uch oy o'tib-o'tmay onamni ham qamashdi. Meni yetimxonaga tash-

lashdi. Aslida, bu joy “xalq dushmani”ning farzandlari uchun qamoqxona o'rnidagi maxsus uy edi. Biz u yerda o'qimasdik, yoshimizga qarab guruh-larga ajratilgan edik, xolos. Ko'chaga chiqishimiz mumkin emasdi. Muassasa panjara bilan o'ralgan, darvozada qurollangan zobitlar turishardi.

Sal vaqtdan keyin tog'am meni uyiga olib ketdi.

(Davomi 5-sahifada.) ➤

(Davomi 7-sahifada.) ➤



OGOHLIK QO'NG'IROG'I

Boshlanishi 1-sahifada.

Jumladan, xalqaro hisobotlar oxirgi yillarda bir necha bor Toshkentni dunyodagi havosi eng ifloslangan shaharlar sirasiga kiritdi. Bu yil ham poytaxtimiz ushbu ro'yxatda dunyoning yirik shaharlari orasida bir necha bor oldingi o'rinlarga chiqqani barchamizda jiddiy tashvish uyg'otdi. Natijada mavjud muammoga zudlik bilan yechim topish maqsadida O'zbekiston Prezidentining "Toshkent shahrida ekologik vaziyatni yaxshilash bo'yicha kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni qabul qilindi.

Ushbu muhim hujjat poytaxtning ekologik muammolariga qarshi kurashda tub burilish nuqtasi bo'lishi mumkin. Farmon nafaqat ekologik muammolarni tan olish, balki ularni hal etish uchun amaliy, kompleks va keskin chora-tadbirlarni joriy etishga qaratilgan. Inson salomatligi va hayot sifatini yaxshilash masalasi davlatimiz rahbarining doimiy e'tiborida. Hujjatda belgilangan havo, suv va tuproqni ifloslantiruvchi manbalarga qarshi kurash choralari bevosita inson salomatligini himoya qilishga yo'naltirilgan. Sanoat korxonalari chiqindilarini kamaytirish, transport harakatini cheklash, qurilishdagi changni bartaraf etish talablari ekologik xavflarni kamaytiradi.

Farmonga binoan, tadbirkorlik subyektlari va fuqarolar tomonidan mamlakatimizga olib kiriladigan maishiy havo tozalash uskunalarini bojxona bojidan ozod etilmoqda. Atmosfera havosining RM 2.5 zarralari bilan ifloslanish manbalarini aniqlash uchun Ekologiya qo'mitasi huzurida Atmosfera havosini chuqur o'rganishga qaratilgan maxsus laboratoriya tashkil qilinishi, Toshkent shahrida havo sifati real vaqt rejimida nazorat qilinadigan avtomatlashtirilgan

tizim yaratilishi, ekologik me'yorlarni buzgan issiqxonalar, turli pechlar hamda korxonalarga nisbatan ma'muriy va boshqa ta'sir choralari ko'riliishi nazarda tutilgan. Poytaxtda havo ifloslanishini kamaytirish maqsadida 2010-yilgacha ishlab chiqarilgan, ekologik talablarga javob bermaydigan avtomobillarni trade-in orqali yangilash mexanizmi joriy etilayotgani, Toshkent shahar hokimligiga 2026-yilga qadar 33 kilometr uzunlikda "Yashil koridor" barpo etish, 700 ta chorrahada zamonaviy, sun'iy intellektual boshqaruvga ega svetofoir tizimini joriy etish vazifasi yuklatilishi ham farmonning ahamiyatini oshiradi.

Farmon asosida Toshkent shahri va uning atrofidagi issiqxonalarni tabiiy gaz bilan barqaror ta'minlash bo'yicha takliflar ishlab chiqiladi.

2025-yil 1-dekabrda boshlab Toshkentda AI-80 benzinini sotish to'xtatildi. Qurilish obyektlariga havo sifatini o'lchaydigan stantsiya va kameralar o'rnatiladi. Bundan keyin Toshkentda binolarni qurish loyihalashtirilayotgan paytda shamol yo'nalishi va tezligini inobatga olish talabi qo'yiladi. "Yashil Toshkent" loyihasi uchun mas'ul respublika ishchi guruhi tuziladi. Toshkent shahar o'rmon xo'jaligi tashkil etiladi. Eng muhimi, poytaxtda daraxt kesish qarori ovoz berish orqali qabul qilinadi.

Ekologik nazoratni kuchaytirish va mas'uliyatni oshirish maqsadida Maxsus komissiyaning tuzilishi va unga sanoat korxonalari faoliyatini to'xtatish, cheklavlar joriy etish singari berilgan keng vakolatlar ekologik qonunbuzarliklarga nisbatan keskin choralalar ko'rilihsidan dalolat beradi. Bu esa ifloslantiruvchi subyektlarning mas'uliyatsizligiga chek qo'yib, atmosfera havosini tozalash va changlanishni kamaytirishga xizmat qiladi.

Toshkent havosidagi zararli moddalar va chang miqdorini keskin kamaytirish farmonning eng muhim yo'nalishlaridan biridir. Bu borada bir qator choralar nazarda tutilgan. Masalan, transport harakatini cheklash, yuk tashuvchi avtotransportlar va toq-juft davlat raqamli avtomobillarning harakatini vaqtincha cheklash (elektromobillar bundan mustasno) havoga tashlanadigan zaharli gazlar miqdorini kamaytiradi.

Daraxtlar – sayyoramizning "o'pka"-si. Ular inson uchun bebaho manba – kislorod ishlab chiqaradi, shuningdek, havodagi chang zarralarini, turli zararli gazlarni o'ziga singdirib, havoni tozalaydi. Shaharlarda yashil maydonlar va daraxtzorlarni ko'paytirish havo ifloslanishini tabiiy ravishda kamaytirishning eng samarali yo'llaridan biridir. "Yashil makon" umummilliy loyihasi kabi tashabbuslar doirasida ko'chat ekish ko'laminini kengaytirish va ularning parvarishini tizimli yo'lga qo'yish, yangi qurilayotgan hududlarda daraxtzorlar va bog'lar uchun majburiy yer ajratish, mavjud yashil hududlarni muhofaza qilish ham ekologiyani, musaffo tabiatni yaratishda muhim rol o'ynaydi. Farmonda bu masalalarga atroflicha ahamiyat qaratilgan.

Atrof-muhitga zarar yetkazuvchi sanoat korxonalarining Toshkent shahridan boshqa hududlarga ko'chirilishi shahar ichidagi ekologik bosimni sezilarli darajada yengillashtiradi. Shuningdek, sanoat korxonalari uchun tashlanmalarining ruxsat etilgan miqdorini belgilash va me'yor buzilgan holatda ularga keskin choralalar ko'rish mumkinligi ekologik mas'uliyatni oshiradi. Maxsus komissiyaga ushbu yo'nalishda davlat organlari va tashkilotlari, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat organlari faoliyatini muvofiqlashtirish vakolati

berilgani ham ekologik siyosatni amalga oshirishda tarqoqlikning oldini oladi va yagona strategiya asosida harakat qilish imkoniyatini yaratadi.

Kezi kelganda aytish kerakki, havo sifatini yaxshilash bir kunlik ish yoki bir tashkilotning vazifasi emas. Bu davlat organlari, mahalliy hokimiyat, korxonalar va eng muhimi, har bir fuqaroning birgalikdagi sa'y-harakatlarini talab etuvchi keng ko'lamli masaladir. Atrof-muhitga e'tiborli bo'lish, energiya tejamkor texnologiyalardan foydalanish va yashil makonlarni asrab-avaylash orqali sog'lom yashash muhitini yaratishimiz mumkin. Xalqimizning yerni, tabiatni, suvni, har bir niholni asrash va e'zozlash borasidagi e'zgu an'analarini, bu bilan bog'liq muqaddas tushunchalari, maqol va rivoyatlarini, albatta, hammamiz yaxshi bilamiz.

Afsuski, bugungi global zamonda biz bu qadriyatlardan tobora uzoqlashib bormoqdamiz. Holbuki, mana shu milliy qadriyatlarimiz muammoga yechim topishning asosiy yo'llaridan biri bo'lishi mumkin.

Ekologik muammolar – o'z kelajagiga befarq bo'lmagan har bir inson va jamiyat uchun ogohlik qo'ng'irog'idir. Bugungi har bir harakatimiz farzandlarimizning toza havodan nafas olishi uchun poydevor bo'lib xizmat qiladi. Shu ma'noda, Prezidentimizning ushbu farmoni mavjud muammolarga yechim topish bilan birga, kelgusi avlodlar uchun sog'lom muhitni ta'minlashga qaratilgan uzoq muddatli strategik yo'lni belgilab berishi bilan ham ahamiyatlidir. Endilikda asosiy vazifa – bu muhim farmonda belgilangan chora-tadbirlarni izchil va samarali amalga oshirishdan iborat.

Jamoliddin BADALOV



QODIRIYGA QAYTIB...

Boshlanishi 1-sahifada.

"Bugun biz oddiy bir kitob taqdimotiga emas, butun bir davr ruhining qayta yaratilishiga guvoh bo'lish uchun yig'ilganmiz. Abdulla Qodiriy deganda, avvalo, milliy tafakkurimizga singib ketgan hayotiy ibratlar ko'z oldimizga keladi. Bugungi saylanmaning esa alohida, o'ziga xos qiymati bor. Go'yo uch alohida o'zan bir daryoga quyilganidek, bu nashr ham yangi tahrir, yangi tartib va yangi ko'rinishda namoyon bo'lmoqda. Ijodiy jamoa esa Qodiriy ruhiyatini zamonaviy o'quvchiga qanday ravishda yetkazish mumkin, degan katta va mas'uliyatli savolga javob topish ustida puxta ish olib borgan", – dedi Umida Teshaboyeva.

Shundan so'ng adib uy-muzeyida tasvirga olingan ma'rifiy lavha namoyish etildi.

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist, shoir Salim Ashur so'z olib, Qodiriy bugungi adabiyotimiz vakillarining ustoz ekanligini alohida e'tirof etib, mashhur sharqshunos olim, akademik Yevgeniy Bertelsning quyidagi fikrlarini yodga soldi: "Dunyoda beshta – fransuz, rus, ingliz, nemis va hind romanchiligi maktablari bor edi. Endi oltinchisini, ya'ni o'zbek romanchiligi maktabini Abdulla Qodiriy yaratib berdi".

Shuningdek ma'ruzachi: "Qodiriy millat ozodligi yo'lga o'zini qurbon qilgan jadid ma'rifatparvarlarining eng ko'zga ko'ringan vakili edi. U faqatgina nazariyotchi emas, jaddilik g'oyalarni hayotga joriy etgan haqiqiy islohotchi bo'lgan. Hatto so'nggi so'roqlarda mustabid tuzumning qattol tergovchilariga tik boqib: "Mening so'roqchim vijdondir! Senlar emas!" – deya olgan, "to'g'rilik yo'lida bosh ketsa ham "ix" demaydigan" shijoatli inson edi", deb qo'shimcha qildi.

Filologiya fanlari doktori, professor Uzoq Jo'raqulov esa Qodiriy ijodining janriy xilma-xilligi haqida gapirib, yozuvchining roman, povest, feleton, publitsistikada birdek faol bo'lgani, har bir janri o'ziga xos kuch va mafkuraviy mazmun bilan boyitganiga urg'u berdi. Shuningdek, adabiyotshunos olim bugun "Tanlangan asarlar" to'plamidan joy olgan bebaho romanlar hamda matbuotdagi ayrim chiqishlar sababli o'z davrida matonatli adibning ruhiy va jismoniy bosimlar ostida qolgani, shunga qaramasdan tanqidiy maqolalar orqali o'sha zamon kaifiyatini to'la ochib bera olgani to'g'risida ham fikr bildirdi.

Qisqa umri davomida o'zidan ulkan ma'naviy meros qoldirgan, millat tafakkurini yuksaltirish yo'lida mol-u jonini ayamagan, uxlaganlarni uyg'otishga qodir asarlari orqali ma'rifat nurini taratgan adibning yuksak zakovati haqida so'z yuritgan yozuvchi Baxtiyor Abdug'afur o'z ma'ruzasida Abdulla Qodiriy ijodining zamonaviy kitobxonga ta'siri, yosh avlodning dunyoqarashini shakllantirishdagi o'ziga xos o'rni, asarlarining bugungi kun uchun nihoyatda muhimligini alohida ta'kidladi.

Jurnalist Sharofiddin To'laganov Qodiriy adabiy merosining media talqini va jamoatchilik ongidagi o'rni haqida ma'lumot berdi. U OAVda yozuvchi asarlarini keng yoritish, tanqidiy-tahliliy fikrlash tarzini yanada rivojlantirish va nashrlar oldidagi mas'uliyat haqida so'z yuritdi.

Nashriyot tahriri hay'ati a'zosi To'liqin Eshbek "Tanlangan asarlar" to'plamining yaratilish jarayoni, konsepsiyasi, asarlar tanlovi sabablari, muqova, format va umumiy uslub haqida ma'lumot berdi.

Tadbirida "Credo-Print" boshmaxonasi vakillari ham ishtirok etib, nashrning texnik jihatlarini, ko'zlangan maqsad va natijalar to'g'risidagi mulohazalarga oydinlik kiritdi.

Shuningdek, taqdimot o'tkazilayotgan zalda Abdulla Qodiriy asarlarining turli yillarda va tillarda nashr etilgan nusxalaridan iborat maxsus ko'rgazma ham tashkil etildi.

Ma'lumot uchun, Abdulla Qodiriyning mashhur uch asari – "O'tkan kunlar", "Mehrobdan chayon", "Diyori baki" o'rin olgan ushbu to'plamga ulug' adibning nabirasi Xondamir Qodiriy mas'ul muharrirlik qilgan. Kitob "Dunyo nashr" nashriyoti tomonidan Feruza Qurbonova muharrirligi ostida tayyorlangan bo'lib, ikki ming nusxada chop etilgan.

O'ziga xos uslubi, yuksak badiiy mahorati va tarixiy voqelikni aks ettirishdagi nozik yondashuvi bilan ajralib turadigan, zamonasining murakkab ijtimoiy-siyosiy muammolarini haqqoniy yoritgan jasoratli adibning yangi to'plami barchamizga muborak bo'lsin!

Shahriyor IBROHIMOV

Boshlanishi 1-sahifada.

Shu yo'nalishda hozir ilmiy tavsiyalar ishlab chiqyapmiz. Iqlim o'zgarishlarining Markaziy Osiyoga ta'siriga kelsak, Tojikiston, Qirg'iziston, Turkmaniston, O'zbekiston va Qozog'istonning janubiy qismida harorat oshishi jahon ko'rsatkichiga qaraganda 0,4-0,5 darajaga yuqori. Buning sabablari ko'p. Eng muhimlaridan biri, mintaqaning geografik joylashuvi bilan bog'liq. O'zbekiston quruq, arid iqlimli hududda joylashgan. Shuning uchun bu yerda nafaqat atmosfera, balki tuproq ham ko'proq qiziydi.

– **Bunga qo'shimcha ravishda kuzning qurg'oqchil o'tayotgani ham vaziyatni og'irlashtiryapti. Jahonda sun'iy intellekt dronlari yordamida yomg'ir hosil qilish amaliyoti bor ekan. Bizda ham shunaqa yangiliklar bormi?**

– Sun'iy yomg'ir yog'dirish texnologiyasi bizda hozircha rivojlanmagan. Bu juda katta mablag' va tajriba talab qiladigan soha. Bulutlarni kimyoviy usulda urug'lantirib, ma'lum hududga yo'naltirish va yog'dirish – katta texnika, ilmiy tadqiqotlar va doimiy monitoringni talab qiladi.

Yog'ingarchilikning kamayishi ham iqlim o'zgarishi fojialari zanjirining bir qismi. Muzliklar erishi, yog'ingarchilik rejimining o'zgarishi, havo haroratining ko'tarilishi, qurg'oqchilikning kuchayishi – bularning barchasi o'zaro bog'liq. "Biz tabiatdan in'om-ehson kutmaymiz, aksincha, tortib olamiz" degan aqidalar davri o'tdi. Tabiat bilan kurashish emas, murosa qilish kerak. Chunki tabiat odamzodning emas, odamzod tabiatning bir bo'lagi. Uni qutqarishga qo'l cho'zmas ekanmiz, oxirida shu qo'llar bilan boshimizga mushtlab qolishimiz mumkin.

Yurtimizda suvni tejovchi texnologiyalarga, "Yashil makon" umummilliy harakatiga katta e'tibor qaratilyapti. Bularning barchasi tabiat va taraqqiyot hamkorligi timsolidir. Iqlim bir kunda shakllanmagan kabi, uning muammolari ham bir kunda yo bir oyda hal bo'lib qolmaydi. Bugun ekilgan har bir nihol farzandlarimiz, nevaralarimizga toza havo beradi, har bir litr tejalgan suv avlodlarimiz chanoqog'ini bosadi.

– **Pekinda safarda bo'lganingizni aytdingiz. Xitoylik**



BIZDAN HARAKAT...



hamkasblaringiz bilan hamkorlik qay yo'sinda davom etmoqda?

– Darhaqiqat, ushbu davlatga ko'p bor xizmat safari uyushtirganmiz. Bu yil ham Xitoy Fanlar akademiyasining prezidentini tomonidan maxta rasmiy taklif keldi. Ularni o'zbekistonlik olimlar bilan hamkorlik nima uchun bu qadar qiziqitirmoqda? Sababi shuki, O'zbekiston bilan Xitoy o'rtasidagi barcha sharoitlarda strategik sheriklik munosabatlarni yanada mustahkamlash va amaliy hamkorlikni kengaytirish yangi bosqichga ko'tarildi. Savdo-iqtisodiy, texnologik va moliyaviy-investitsiyaviy hamkorlik jadal rivojlanmoqda. Endi ular "Iqlim o'zgarishi investitsiya loyihalari kelajagiga qanday ta'sir ko'rsatadi? Kelgusida qanday chora-tadbirlar ko'rish kerak? Bu yo'lda ilm-fan vakillari qanday fikrda?" kabi savollarga javob izlaydi. Shuning uchun Xitoy tomoni barcha xarajatlarni qoplagan holda hamkor davlatlar olimlarini taklif qilib, fikr va tajriba almashadi.

Shu yerda ikki jihatdan ibrat olishimiz mumkin. Birinchisi, dunyoda ilmdan boshqa najot yo'q, degan qoidaga binoan ilm-fan rivojini izchil davom ettirish hamda yaratilayotgan sharoitlarga munosib javob berish. Ikkinchisi, iqlim o'zgarishi faqat hukumat yo ekologlarning muammosi emas, har birimizning faoliyatimiz ham bevosita shunga bog'liq ekanini anglab yetishimiz lozim.

– **Ekologik muammolarni bartaraf etishda sun'iy idrok imkoniyatlaridan nechog'lik foydalana olayapmiz?**

– Sun'iy idrok iqlim o'zgarishlarini o'rganishda, xususan, prognozlar aniqligini oshirishda ham yordam beradi. U orqali katta ma'lumotlar qisqa vaqt ichida tahlil qilinadi. Shuningdek, qator texnologiyalarning ishlash tartibini nazorat qilishda ham undan unumli foydalanish mumkin. Ammo oxirida baribir harakatni siz-u biz – odamzod qilishi kerak. Asosiy mas'uliyat baribir bizning yelkamizda qoladi.

Iqlim o'zgarishlarini to'xtatish mumkinmi? Ochig'ini aytish kerak, buning imkoni yo'q. Bu mening emas, jahon olimlarining fikri. Demak, yagona yo'l – moslashish va izlanish. Yuqori haroratga moslashish, qishloq xo'jaligi va ishlab chiqarishni shunga moslashtirish, infratuzilmani qayta ko'rib chiqish zarur.

– **Domla, menimcha, mushrtiyalarimiz uchun juda qiziq va foydali suhbat bo'ldi. Sizing mashvaqatli va savobli izlanishlaringizda yangidan yangi yutuqlar tilab qolamiz. Zero, ilmning muvafaqqiyati jamiyatning ravnaqi va farovonligi asosidir. Salomat bo'ling!**

Vasila HABIBULLAYEVA
suhbatlashdi.



SUYUNCHI

“Yaldo kechasi”ni kuting va o‘qing!

Jamoatchilik orasida tarqalgan xabarlariga ko‘ra, yaqinda poytaxtimizda “Xaybar–25” nomli yangi nashriyot ish boshlabdi.

Muxbirimiz Shahriyor SHAVKAT ushbu nashriyot bosh muharriri Shuhrat SOHIBOV bilan suhbatda bo‘ldi.



Muxbir: Avvalo, sizni va jamoangizni nashriyotingiz o‘z faoliyatini boshlagani bilan tabriklaymiz. Tabiiyki, mushtariylarimizni “xaybar” so‘zi qanday ma‘noni bildiradi, degan savol qiziqtiradi...

Shuhrat SOHIBOV: Ma‘lumki, “xaybar” jo‘g‘rofiy ma‘noda Osiyo qit‘asidagi baland dovonning nomini anglatadi. Lug‘aviy-majoziy ma‘noda esa “yuksaklik” demakdir. Biz ma‘naviy yuksaklikka intilish, kitobxonlarimizni ham ana shunday baland maqomga ko‘tarishni maqsad qilib, davlatimiz tomonidan yaratib berilgan keng imkoniyatlardan foydalangan holda, yaxshi niyat bilan nashriyotimizga shunday nom qo‘ydik.

Shiorimiz: **“Biz doimo yuksaklikka intilamiz! Biz bilan birga yuksaling!”**

Ish boshlaganimizga ko‘p vaqt o‘tmagan bo‘lsa-da, bir qator jiddiy loyihalarga kirishdik. Bu haqda gapirganda, avvalo, ilk mahsulotimiz bo‘lgan “Yaldo kechasi” tarixiy romani haqida so‘z yuritish o‘rinlidir.

Ko‘pchilik yaxshi biladi, yaldo kechasi – bu kalendar hisobiga ko‘ra, 21-dekabrden 22-dekabrga o‘tar kechasi, yilning eng uzun tunidir.

“Yaldo kechasi” esa favqulodda g‘aroyib tarixiy roman bo‘lib, to‘rt yuz oltmish bir betdan iborat yirik hajmli, murakkab suyet va kompozitsiyaga ega. Ushbu asarni shu kunlarda lotin va kirill alifbolarida, ko‘pining nuxxada chop etish ishlarini yakunlayapmiz.

Biz bu ijodiy jarayonga mamlakatimizning atoqli adiblari, adabiyotshunos va tarixchi olimlari, rassom va dizaynerlar, malakali matbaachilarini jalb etdik. Fursatdan foydalanib, ularning barchasiga, avvalambor, asarni qo‘lyozma holda o‘qib, o‘zlarining qimmatli fikr-mulohazalarini bildirgan ko‘plab ijodkorlarimizga minnatdorlik izhor etamiz.

Xususan, ular orasida O‘zbekiston Qahramoni, mashhur adib va tarjimon Ibrohim G‘afurovning nomini alohida ta’kidlamoqchiamiz. Ustoz “Yaldo kechasi”ning mas‘ul muharriri sifatida biz bilan yaqindan va faol hamkorlik qilganlari uchun boshimiz ko‘kka yetdi.

Shuningdek, akademik Shuhrat Sirojiddinov, professorlar Bahodir Karim, Nurboy Jabbor, Shuhrat Rizayev, Jabbor Eshonqul, taniqli adiblar Erkin A‘zam, Sirojiddin Sayyid, Murtazo Qarshiboy, G‘ayrat Majid, Ikrom Iskandar, G‘afur Eshmurod, G‘ayrat Sheraliyev, O‘zbekiston san‘at arbobi Tursunali Qo‘ziyev, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi, matnshunos Xondamir Qodiriy, adabiyotshunos Olimjon Davlatov singari bir qator hurmatli ijodkorlarimiz ham asarni takomilga yetkazishga munosib hissa qo‘shganlarini aytib o‘tmoqchiaman.

Muxbir: Adabiyotimiz yetakchi namoyandalarining bu asar haqidagi fikrlari gazet-xonlarimiz uchun ham qiziqarli bo‘lishi shubhasiz.

Shuhrat SOHIBOV: Albatta. Masalan, Ibrohim G‘afurov domla “Yaldo kechasi” tarixiy romaniga quyidagicha baho berdilar:

“Bu kitobni u adabiy mistifikatsiyadan foydalangan holda, “O‘tkan kunlar”ning ikkinchi kitobi tarzida yozdi, buyuk Qodiriy nomidan, Qodiriy bo‘lib yozdi; qattol zamon Qodiriyning qo‘lini kishanlab, unga yozish uchun imkon bermaganligi bois fozil izdosh va uvays shogird sifatida yozdi. Hech kimning xayoliga kelmagan fantastik bir orzu ni ro‘yobga chiqardi. Bu asar yangi zamon o‘zbek adabiyotida tamomila kashfiyot, desa arzigulikdir...”

Yoki bo‘lmasa, Xondamir Qodiriy: “Ushbu kitobning ichiga ikki-uch sahifadayoq kirib ketdim. Sababi, uning sahifalarida so‘zlab kelinayotgan dard-alamlar menga yaqin – tanish, ular meni o‘z domiga tortib ketdi va men kitobni uch kunda o‘qib bitirdim, yana qayta o‘qidim. Kitob menga juda-juda ma‘qul. Bugungi avlodning barcha qatlamiga ma‘naviy, ma‘rifiy, madaniy, axloqiy va siyosiy tarbiya bera oladigan maqomda yozilgan” degan fikrlarni bildirdilar.

Biz bu ikki muhim iqtibosni bevosita kitob muqovasida berishni zarur, deb bildik.

Ayni vaqtda roman mazmunini chuqurroq ochib berish maqsadida Zulfiya Ibrohimova, Akmal Rasulov kabi grafik rassomlar tomonidan unga yigirmadan ortiq original badiiy illyustratsiya ishlandi. Agar e‘tibor berib qaraydigan bo‘lsangiz, rassomning mahorati bilan kitob muqovasidagi qahramon siymosida asardagi to‘rt nafar personaj, ya‘ni Otabek, Yodgorbek, Ozodbek va Odilbek timsoli mujassam bo‘lganini ko‘rish mumkin.

Muxbir: Bizni ham bu asarga juda qiziqtirib qo‘ydingiz. Aytting-chi, roman muallifi kim va kitob qachon nashr etiladi?

Shuhrat SOHIBOV: Asar muallifi... keling, bu hozircha sir bo‘lib tura qolsin.

Muxbir: Tushunarli. Ya‘ni, bu borada o‘ziga xos bir intriga saqlanmoqchi, shundaymi?

Shuhrat SOHIBOV: Yo‘q, gap intrigada emas. “Tarixiy hujjatlar asosidagi badiiy to‘qima” shaklida yaratilgan mazkur asarning dastlabki sahifalarida “Bu kitob” deb nomlanadigan batafsil bir So‘zboshi berilgan. U bilan tanishgan o‘quvchilar romanning qanday qilib dunyoga kelingani-yu muallifi kim ekan haqida atroflicha ma‘lumotga ega bo‘ladi. Hozircha esa men ushbu So‘zboshida ta’kidlangan bir fikrni, ya‘ni “asar muallifi – nomlari keng jamoatchilikka ma‘lum va hozircha noma‘lum bo‘lgan yuzlab-minglab vatan-doshlarimiz, ta‘bir joiz ko‘rilsa, butun o‘zbek xalqidir” degan so‘zlarni zikr etish bilan kifoyalanaman.

Romanning qachon nashr etilishiga kelsak, biz asarning nomiga mos bir ramziy ma‘no kasb etishini niyat qilib, nasib etsa, 21-dekabr – yaldo kechasiga qadar kitob do‘konlari va o‘quvchilar qo‘liga yetkazib berishni mo‘ljallab turibmiz. Shu bois ayni kunlarda barchamiz umid, kuchli hayajon tuyg‘ularini boshimizdan kechirmoqdamiz.

Muxbir: O‘z navbatida biz ham gazet-xonlarimiz nomidan nashriyotingiz faoliyatiga yutuq va omadlar tilaymiz.

Quyida “Yaldo kechasi” (“O‘tkan kunlar”ga ilova) tarixiy romani asosiy qahramonlarining kitob forzatsida chop etilgan o‘y-fikrlari, hissiyot-kechinmalarini aks ettiruvchi iqtiboslar e‘tiboringizga havola etiladi.

Fikri ojizimcha, bu ikki podishoh – ular bir-birlari ila xesh-aqrabo ekanlari ham hazrating‘a maxfiy ermas – ushbu yo‘sin-da zimdan kelishib olganlar. Ya‘nikim, Oq podishoh hukumati ingilislarining Hindistondagi hukmdorlik siyosatig‘a daxl etmasa, ingilis saltanati ham ularning Turkistonda mo‘ljall qilg‘an istilosig‘a mutlaqo aralashmas. Zero, kichik bir musulmon ulusini deb sohibi dunyo bo‘lg‘an ikki nasroniy davlat bir-biriga qarshi tig‘ ko‘tarmas, olampanoh...

Otabek

Usta Sayfining uyida Yodgorbekdan kelgan xatlarni o‘qib berishni Zumraddan so‘rag‘anlarida uning yuragi qafasg‘a

tushkan kabutar kabi tipirchilab qolishini, xususan, maktubdagi “Singillarimga ham salom” degan beozorgina jumlani tilga olg‘anida yuzlari lolarang tus olib, tovushi o‘zgarib ketishini ta’kid etish ila kifoyalanurmiz.

Takror Sizdan Xudo va hazrat Iso alayhissalomni vosita etub so‘raymanki, bu yozg‘on xatimni faqat men bilay va Siz biling. Na ruslardan, na musulmonlardan hech kim bilmasun va xatni o‘qib anglag‘oningizdan so‘ngra yirtib tashlang. Zero, Yodgorbek muallim va ani do‘stlari bilsalar, favroi no‘g‘oy va Qafqoz gazitlarig‘a ham meni va ham Sizni yozadurlarki, “Najot” maktabi xususida donus qilibdurlar, deb...

Rafiq maxzum Hamdam o‘g‘li

Har safar shu to‘g‘rida so‘z ochilsa, kuyav o‘g‘lingiz: “Men ikki qatla xotin olib ne ro‘shnoliq ko‘dimki, yana Kumushning arvohini chirqiratishg‘a nomusim yo‘l qo‘ysin”, deb, etak silkib o‘rnidan turib ketadir.


Usta Alim

Suyukli nabiramiz Yodgorbekning ham diydorini ko‘rmoq, bag‘rimizg‘a bosib duo qilmoq bizga hanuz armon bo‘lib qolayotir. Battol Otabekni murosag‘a keltirib, shul muborak mohi ramazonda nabiramizni Toshkandg‘a jillaqursa hafta-o‘n kunga yuborsangiz edi...

Yusufbek hoji

Men bechora qudalarimning holi-holatini o‘ylab, har kuni yetti qat etimdan tushaman. Axir, rahmatli Kumush biz uchun qanchalar aziz bo‘lg‘an bo‘lsa, siz ham ular uchun shundoqsiz. Yolg‘iz bolaning ishi qiyin ekan...

Oftob oyim



“Bir qoshiq qonimdan keching” emish... Lekin sen ma‘unda bir qoshiq qon bormu o‘zi yo yo‘qmu?!

Xudoyorxon

Vatan imorati qulab yotqanida, man yangi uyni boshimg‘a uramanmi?

Maqsud ponsad

– Bekvachcha, endi uyingizga bir butxona ham soling!

– Ma‘qul, Xolvoqi aka, agar butxona soladiring‘an bo‘lsam, albatta sizni po‘p qilib olg‘anim bo‘lsin!

Yodgorbek

Sibir muzofotida bo‘sh joy ko‘pdur va sizlarga jazo bermakka podishohimizning askarlari kifoya qiladir...

Giniral-gubirnato‘r Duxovskoy

Biz Turkiston, inchunun, Farg‘ona muzofoti ulamolari Siz, yuksak maqomliq harbiy gubirnato‘r janobi oliylari hamda Ostroumuf nozir to‘radan o‘tinib so‘raymizkim, bizni “jadid” degan balodan qutqarsinlar. Illo, “al-hukm-u liman g‘alab”, ya‘nikim, g‘olibning hukmi ustundir.

Mulla Oxund domla

Mayli, sartiya orasida har qancha janjal, har qancha mujodala kuchaysa – shuncha soz. Ular qadimchi yo jadidga, yo yana allambalo toifa-yu tabaqalarg‘a ajralib, bir-birining etini yesa, ayni muddaodir. Harne, o‘zaro ittifoq bo‘lmasin, birlashmasin.

Ostroumuf

“Ushbu qochqin muqaddam Farg‘ona muzofotida maktabdorlik hamda “Najot” ismlik gazitga muharrirlik qilib tanilgan, hukumatga qarshi kirdikorlari uchun o‘n to‘rt yilga Sibiriyaqada badarg‘a qilingan Yodgorbek Otabek o‘g‘li Yusufbekif emish... Ul vaqt oni tutmoq bo‘lg‘anlarida o‘zini daryog‘a tashlab qochmoq harakatini qilibdur. Shul sababdin soldotlar oni otib o‘ldirmoqqa majbur vilodurlar”.

“Turkiston viloyatining gaziti”

Mamlakatdorliq yolg‘iz hoy-u havas bilan poydor bo‘lmas. Iqtidor, avvalan, harbiy iqtidor kerak. Sarmoyaviy qudrat lozim. Soniyani, el-ulusning yakdilligi, qo‘llovi darkor. Taassufki, muxtoriyatda mana shu uch nimarsaning birontasi ham yo‘qtur. Bo‘lsa-da, chala va zaifdir. Mana, o‘zing mushohada et. Ko‘rasanmi buni? Bu muxtoriyat nomidan chop etilib, tarqatiladiring‘an ro‘znoma emish. Tahsin va tasanno! Faqat bu afkori nashrning “Известия временнаго правительстмеа автономии Туркестана” deb atalishi, o‘ris harfi, o‘ris tili bilan yozilg‘ani neni anglatur?

Nusratxon to‘ra

Bizdi uyda bir haftadan beri qiyomat. Badbaxt xotin, o‘ldirsang-o‘ldir, lekin betimdi ochib quluping‘a bormayman, deb oyoq tirab olg‘an, uh...

Shar‘iy tanmahramingiz bo‘lsa-yu, so‘kib bo‘lmasa, urib bo‘lmasa... talog‘ini bervoray desam, o‘rtada beshta jujuq bor, qolaversa, firqa ham bung‘a yo‘l qo‘ymas...

Ummatali Hikmatuf

Dunyo yer yuzidagi qudratli saltanatlar o‘rtasida allaqachon taqsim qilib bo‘ling‘an. Bul taqsimotda biz – Turkiston kabi norchor va zaif o‘lkalarning ulushi yo‘q darajadadur... Agarki biz millat, davlat o‘laroq dunyo xaritasidan butkul o‘chib ketsak ham, bul fojia jahon hojalarini chivin chaqqan kabi seskantirmas. Bas, hol shunday ekan, biz o‘zimizni jahannam otashig‘a otmaslig‘imiz, aksincha, elimiz, yurtimizni qanday qilib bo‘lsa-da, yo‘q bo‘lib ketishdan asrab qolish haqida qayg‘urishimiz kerak. Turkiston yana bir muxtoriyat qirg‘inini ko‘tara olmas.

Ozodbek

Bismillahir rahmonir rahim. Vallohi, billohi, taallohi! Menkim, shahid Yodgorbekning o‘g‘li, shahid Otabekning nabirasi Odilbekdirman, Allohning kalomini, iymonimni o‘rtag‘a qo‘yib ont ichaman: otabobolarim xoki yotkan, bir kun o‘zim ham borib yotadiring‘an shu tufroq uchun, millatim, dinim uchun dushmang‘a qarshi so‘nggi qatra qonim qolg‘uncha kurashaman. Bu yo‘lda shahid o‘lmoqqa tayyorman...

Odilbek

– Ey mujohid pahlavonlar! Vatan istiqloli uchun jon tikkan o‘g‘lonlar! Nega xomush, nega mahzun bo‘lib qoldingiz? Boshingizni ko‘taring, sizlarning ishlaringiz, maqsadlaringiz, qonlaringiz haqdir! Allohning irdosi, qo‘mondon Odilbekni yerga berdik. Ammo, o‘zingiz aytig, Odilbek o‘ldimi? Aslo! Zotan Odilbek kim edi? U Vatan va din mujohidi, mardi Xudo edi. Bas, shundoq insonni o‘ldi deb bo‘lurmi? Basharti, Odilbek o‘lgan bo‘lsa-da, aytig, uning ishi, uning a‘moli, uning maslagi ham o‘ldimi? Aslo o‘lgani yo‘q! Hammangiz shohidsiz, bek oxirg‘i nafasig‘a qadar dushman bilan mardona olishdi. Qo‘lidag‘i mana shu bayroq uning muborak qoni ila bo‘yaldi. Jon berar ekan, mendan: “Og‘a, bayroqni kim ko‘taradi?” deb so‘radi.

Men endi shu savolni sizlarga bermoqchiman: bayroqni kim ko‘taradi? Kim?..

Haydar Burhon

Ammo oradan ko‘p o‘tmay, O‘sh va O‘zgan tomonlarda bir qo‘rboshi xotin paydo bo‘lg‘ani, o‘sha qonli bayroqni baland ko‘tarib, yuzlab yigitlarga bosh bo‘lib yovga qarshi qaqshatqich jang qilayotqani butun Farg‘onag‘a ovoza bo‘ldi. Bilg‘uchi kishilarning aytishlarig‘a qarag‘anda, bu ayol og‘asi Nusratxon to‘ra, eri Matlabxon, juvonmarg qizi Suyimaxon, din qardoshi Odilbekning xunini talab qilib maydong‘a chiqqan Oyniso qo‘rboshi emish...

“Maxfiy maktub”dan



MULOHAZA

Avstriyalik adib, modernizm yo'nalishining tanikli vakili Frans Kafkaning "Jarayon" romanini o'qir ekanman, uning qahramonlarni shuncha gap-so'z, nutq va va'xxonlik maqomidagi uzundan uzoq savol-javoblar bilan ta'minlash mahoratiga qoyil qoldim. Asarda tasvir tiniq, jumlar pishiq-puxta, so'zlar zanjiri mustahkam, dramatism, psixologizm kuchliligini ham tan olmasdan iloj yo'q. Roman yozuvchining ashaddiy muxlisi Vafo Fayzulloh tomonidan o'zbek tiliga qoyilmaqom o'g'irilgan, bu borada e'tiroz yo'q. Gap shundaki... Kitobni o'qish uchun ketgan vaqtim evaziga nima oldim, degan savolga aniq javob masalasida boshim qotdi.

Kafka asarlarini qayta-qayta, alohida tayyorgarlik bilan o'qish zarurligi to'g'risida yozadilar. Menimcha, masalan, "Jarayon", "Evrilish" asarlarini tadqiqotchilar qayta o'qisalar kerak. "Qishloq vrachi" hikoyasida ko'ngilni behuzur qiladigan manzaralar tasvirlansa, "Evrilish"ni o'qiyotib, o'zining ana shu asar qahramoni bo'lmish maxluq qavmidan ekanligi uchun jirkaniy ketganday bo'ladi kitobxon. Bu toifadagi asarlardan qanday estetik zavq olish mumkin?

"Jarayon"ning qariyb 20 sahifasi advokatlik va advokatlarning samarasiz faoliyatlarini haqidagi (orada sud jarayoni to'g'risida uzuq-yuluq gap chiqib qoladi, ammo jarayondan nom-nishon yo'q) uzundan uzoq yarim nazariy, yarim taxminiylar, yarim kuzatuvlar xulosasi bo'lmish mulohazalardan iborat. Taxminan 160-betlarda: *"Shunday bir girdobga tushib qolgan ediki, omon qolish uchun faqat kurashish kerak edi"*, degan jumla bor. Vaholanki, qanday girdob haqida gap boryapti, kim yoki kimlar bilan kurashish kerak – noma'lum. Lekin ayni o'sha jumladan keyin haqqoniy bir gap yozilgan: *"Shunga qaramay, vahima qilib, ayvuhannos soladigan hech bir voqea sodir bo'lgani yo'q"*.

Darhaqiqat, shungacha tergovchi bilan ikki-uch og'iz savol-javob qilgani e'tiborga olinmasa, hech kim bosh qahramon Yozef K.ni qoziga olib borayotgani, hatto bu haqda o'ylayotgani yo'q, muallif yozganida, vahimadan boshqa hech nima sodir bo'lgani yo'q. 300 sahifalik romanning 120 sahifasi davomida aybdor tergovchi bilan bir marta uchrashadi, xolos, unda ham tayinli gap bo'lmaydi. Voqealarning tergov jarayoniga, mavzuga daxli sezilmaydi. Yozef K. g'irt ovsar, Dostoyevskiyning

o'sha tilga o'g'irilgan-o'g'irilmaganligi bilan ham belgilanar" ekan!.. "Jarayon" tarjimonining yozishicha esa, "Kafka ijodi noinsoniy, insonning oliy tuyg'ulariga yot" deganlar nohaq, "Jarayon" sirasidagi asarlar "ma'naviy taraqqiyotimiz uchun juda zarur"...

Bu gaplarni o'qib, o'ylanib qoldim. Nahotki, buyuk ma'naviyat va madaniyat sohibi bo'lgan, dunyo tan olgan allomalarni, jadidlardek ulug' ma'rifatparvarlarni yetishtirgan xalq Kafka va uning tabaqasiga

tushunchalari haminqadarligidan ular emas, biz mulzam tortgan edik. Axir bizda bir necha o'nlab hind yozuvchi-shoirlarining kitoblari qayta-qayta nashr qilinadi-ku!

Muloqotda "Bizning o'quv yurtlarimizda bir qancha hind klassik adiblari o'qitiladi. Sizlarda ham o'zbek adabiyoti namoyandalari o'qitiladimi?" degan savolimizga J.Neru nomidagi universitetning Markaziy Osiyo bo'yicha mutaxassisi (u 1987-yili O'zbekistonda bo'lgan ekan) Muzaffar A'lam shunday

yeta olmayotganim (balki ularning muvaffaqiyatlari sirini anglay bilmayotganim) uchun juda xijolat torta-man, ammo... "Men-ku, nari borsa, Lev Tolstoyning ixlosmandiman, lekin o'shanday fikrlari, dunyoqarashi keng qamrovli, yozish san'atining piri komili ham Shekspirdek dunyoga mashhur dramaturgni (va yana ayrim o'z davrining klassiklarini) tan olmaganku", deb o'zimga taskin beraman. Shubhasiz, Tolstoy hasaddan yo dunyoqarashi cheklanganidan inkor etmagan Shekspir yo Nekrasovni, axir u Pushkinni, Turgenevni ulug'lagan-ku!

Hay, Kafkaning Tolstoyga tenglashtirilishi(?)ga ham (so'zboshilarda shunday taqqos bor) toqat qilish mumkin, axir bu ham shaxsiy fikr-da, degan xulosa odamni yupantiradi (garchi o'nlab Kafkalar birgina Tolstoyning o'rni bosa olmasa ham). Boringki, tadqiqotchilarning "kashfiyot"lari ham rost bo'la qolsin. Xo'sh, kitobxonlar-chi? Ular "Jarayon"dan qanday manfaat oladi, qanday yombini qo'lga kiritadi? Kitobni o'qigan o'quvchi jig'ibiyron bo'lishi, azoblanishi, bir dardini ikki qilib olishi kerakmi? Umuman, yozuvchi kitobxonga ma'naviy zavq berishi lozimmi yo uning boshini qotirishi, asablarini egovlashi kerakmi? Kafka "insoniyatning ma'naviy hayotidagi xavflardan ogohlantirgan" ekan, "Jarayon" yozilganidan beri o'tgan salkam bir asr davomida o'sha xavf barham topdimi yo aqalli kamayib qoldimi? Aksincha emasmi?

So'zboshida romanga nisbatan e'tirozli mulohazalar ham bildirilgan. Masalan: "Jumla tuzilishi, gap qurilmasi, fikrni ifoda etish uslubi ezmaliikka, hatto mijg'ovlikka moyil". Unda adiblarimizdan birining: "Ha, endi Kafka deganlari kasal bir odam-da", degan gapi kinoya bilan esga olingan. Aftidan, o'sha adib gapning indallosini aytganga o'xshaydi. Odatda, noxush xastalikka chalingan kimsalarda boshqalarga muhabbat hissi yuqori bo'lmisligi mumkin. Kafkaning kasalligini ta'kidlagan adibimiz balki masalaning shu jihatini – yozuvchining alamzadaligini ham

nazarda tutgandir. Axir o'z otasini qoralash, uning ustiga botmon-botmon "mag'zava ag'darish" uchun bir dunyo oq qog'ozni qora siyohga bulagan ("Otamga xat" essesi) yozuvchiga yana qanday ta'rif berish mumkin?

Menimcha, agar "Jarayon" boshqa bir, aytaylik, mahalliy, tanilmagan-roq ijodkor qalamiga mansub asar bo'lganida, ayrim...shunoslar "syujet, kompozitsiya qani, personajlar nutqidagi individuallik, mantiq qani, romandagi uzundan uzun safsatalar nimaga kerak?" kabi savollarni qalashtirib, muallifning boshida yong'oq chaqarmidi?

Boshqalar ko'kka ko'tarayotgan asarlar to'g'risida nomaqbul(roq) mulohazalar bildirish noqulay, albatta. Lekin o'z dunyoqarashimdan kelib chiqib yozayman bu gaplarni. Umuman olganda, "Jarayon" romanini tahlil qilmoqchi emasman, balki u haqdagi maqtolarga asosan qo'shilgan holda, ba'zi mushohadalarni bayon etdim, xolos.

Kafka yoki Joys asarlaridan qoniqish hosil qilmaganlarni tushunmaslikda ayblash va ularga ta'na toshlarini otish shart emasdir. Axir Kafka ko'targan masalalardan biri inson huquqi-ku! Kitobxonning kimlargadir yoqmasligini andisha qilib, o'z fikrini, ko'nglidagi gapni aytmisligi, uni bu huquqidan mahrum qilishga urinish ham adolatdan emas. Aslida, rang-barang fikr qo'zg'ashining o'zi asarning yutuqlaridan biri emasmi?

Xullas, "Jarayon", nazarimda, huzur qilish, ma'naviy oziq olish uchun emas (albatta, hamma asar shunday bo'lishi shartmasdir, omadi gap-da), sabr-bardoshdan bel bog'lab, tishni tishga qo'yib, "o'qish kerakda", degan majburiyat bilan o'qiladigan, omma emas, xos kitobxonlarga atalgan asarlar sirasidan. Shu ma'noda, kaminaning shaxsiy, nisbiy mulohazalari ham hammaga mo'ljallanmagan.

Qamchibek KENJA,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan
yoshlar murabbiysi,
Andijon davlat universitetining
faxriy professori

MOZIYDAN SADO

To'g'risi, ko'pchilik "jadid harakati" deganda, sanoqli namoyandalarni tushunadi. Go'yoki, jadidlar faqat katta shaharlarda yashab faoliyat yuritgan, vaqtli nashrlar tashkil qilib, maktablar ochib, uzoq qishloqlarga ularning qadami... yo'q, hatto xabari ham yetmagan. Bu fikrning shakllanishida sobiq sovet mafkurasining hissasi katta. O'sha davr qiyofasi tasvirlangan turli janrdagi asarlarda jadidlar haqida noxolis ma'lumotlar keltiriladi, "burjuziyya vakillari", "bir hovuch mafkurasu buzuq kimsalar", "panturkchilik g'oyasi targ'ibotchilari" kabi kamsituvchi ayblovlarga urg'u beriladi.

Xo'sh, aslida, Turkiston zaminida o'tgan asr boshlarida paydo bo'lib, qisqa fursatda siyosiy kuch darajasiga yetgan, umri chorak asr bilan cheklangan bo'lsa-da, mustamlaka zanjiri va eski aqidalar ta'sirida qolgan xalqni uyg'otish, ularning zehniyatiga hur fikrlarni singdirishni oliy maqsad qilgan jadidlar harakatining miqyosi qay darajada edi?

...Xiva xonligining Bog'ot bekligi markazida istiqomat qilgan to'rt og'a-inining to'ng'ichi Riyimboy aka dehqonchilik bilan ro'zg'orini boqqan. Yana bir inisi Mashafo hududdagi "Trimchi ko'l" bo'yida dehqonchilik qilish qatorida baliqchilik bilan ham shug'ullangan. Kenja o'g'il Xudoybergan bozorda qovun olib-sotgan.

Og'a-inilarning ikkinchisi Karimboy aka maktab-madrasa ko'rgan, Orenburggacha bo'rib savdogarlik qilgan. U hali madrasada o'qib yurgan vaqtlarida jadidlar harakati bilan qiziqqan, so'ng savdogarlikdan topgan daromad hisobidan Bog'ot bekligida ilk xususiy maktab ochgan. U yangi maktabdorlar birin-ketin qamalatganini ko'rgach, yarim tunda bola-chaqasini olib, musofirlik yo'lini tutadi. Uning avlodlari hozir Turkmanistonning Mari shahrida yashaydi...

Bog'otlik yetmish besh yashar Qalandar buva Matsafoyev bir voqeani hikoya qiladi: "Bir kuni maktabdan qaytayotganimda, Matlatif buva bilan Masharif buva janjallashib turgani ustidan chiqdim. Janjalga sabab: Masharif buva o'z otiziga suv ochgan, Matlatif buva esa suvni o'z otiziga yo'naltirgan. Janjal yoqa bo'g'ishgacha bordi. Matlatif buva gavdali odam edi, Masharif buvaning yoqasidan olib, oyog'ini yerdan ko'tardi. Shunda Masharif buva lahzada ichida o'zini yerparchin qilaman deb turgan raqibiga keskin zarba berdi. Matlatif buva orqasi bilan yiqildi. Men maktabda boks to'garagiga



qatnardim. Masharif buva raqibini yiqitish uchun qaysi usulni ishlatganini bilay, deb bordim. Masharif buva savolimga kulib javob berdi: "Madrasada o'qigan vaqtimizda jadidlarga qo'shilganmiz. 1937-yilda shu sabab bilan besh yilga qamashdi. Qamoqda bir ziyoli inson menga boks sirlarini o'rgatgan". Masharif buva qamoqdan so'ng Chorjo'y, Mari shaharlarida yashab, keksaygan vaqtida yurtga qaytgandi".

Qishlog'imizda uzoq yillar imomlik qilgan Abdulla maxsum buva xonlikning oxirgi davrida Xiva madrasasiga o'qishga kirgan, ammo madrasalar yopilib, ta'limni to'liq ololmagan. U kishi koloxlashtirish davrida bir muddat brigadirlik ham qilgan. Maxsum buva salkam to'qson yoshida boqiy dunyoga ketdi. Vafotidan so'ng nevarasi buvasidan qolgan bir kitobni ko'rsatdi. Bir asr ilgari Turkiyada chop qilingan kitobda turk posholarining suratlari aks etgandi.

Mulla buva bilan gurgunlarimizdan birida madrasada o'qigan davrida jadid harakatiga qo'shilgan-qo'shilmagani haqida so'raganimda, u kishi: "O'n yettinchi yilda Xivada jadidlar ko'p edi. Ular madrasada saboq berar, chekka qishloqdan kelgan biz kabi toliblarni moddiy qo'llashardi. Lekin partiyaniki kabi jadidlar

harakatiga a'zo bo'lganing uchun guvochnoma berishmasdi", deb javob bergani esimda. Sandig'da saqlab kelgan kitoblari orasida aynan jadidlar targ'ib qilgan kitoblar bo'lgani uning ma'nani jadidlikni qo'llaganini isbotlaydi.

1914-yilning avgustida tashkil topgan "Yosh xivaliklar" ham aynan jadid harakatining hosilasi hisoblanadi. Xonlikda jadidlik boshida shaxsan vaziri akbar Islomxo'ja turgani harakatning ko'lami va ahamiyatini bildiradi. Xonlikda katta ta'sir doirasiga ega mulozimning jadidlarga bosh qo'shgan yuzlab, minglab yoshlar, ayniqsa, toliblarni ruhlantirgani, shubhasiz. O'z davrida taqriban olti yuz ming adad aholi yashagan xonlikda o'ttizga yaqin bекlik mavjud bo'lsa, "Yosh xivaliklar" yetakchilari tuzgan Xorazm Xalq Sovet Respublikasida hudud 22 ta tumanga bo'lingan.

1920-yilda Qo'shko'pir bekligining Xayriobod qishlog'ida ilk maktab ochiladi. Bu maktabni Ahmad afandi tashkil qilgandi. U qishloqning iqtidorli yoshlarini tanlab, ularga bilim bera boshlaydi. Turmush o'rtog'i Yoqut muallima keyinroq qizlar uchun alohida maktab ochadi. Jadid harakatiga qo'shilib, chekka qishloqda ilk bora yangicha maktab ochgan er-xotin

javob bergan edi: "Biz Navoiyni va shubhasiz, Boburni bilamiz, ular umumiy darslarimizdan qisqa bo'lsa ham o'rin olgan, lekin keyingi yuz yil ichidagi o'zbek adabiyotidan, to'g'risi, bexabarmiz..." O'shanda ko'nglimdan kechgan o'ylarni "Hind soriga" degan safarnomada shunday bitgan ekanman: "Boshqalamini ibrat qilib, bayroq qilib ko'z-ko'zlayvermay, o'zingnikini boshqalarga ko'rsatishni ham o'ylash, bilish kerak, shekilli..."

Men, albatta, yuqoridagiday "olamshumul" ijodkorlarning qadriga

OYDINLAR

qatag'onga uchragan. Ular ta'lim bergan yoshlar esa, keyinchalik oliy o'quv yurtlarida o'qib, turli lavozimlarda ishlab, ezgu ishlari bilan o'zlaridan yaxshi xotiralar qoldirgan.

Yuqorida misol tariqasida keltirilgan Bog'ot va Qo'shko'pir tumanlari hudud jihatdan kichik va chekka tumanlar hisoblangan. Shu yerlarda jadid harakatiga qo'shilgan, unga ergashganlar soni shu qadar ko'p bo'lgan ekan, o'z davri o'lchamlarida nisbatan yirik hisoblangan Xiva, Yangi Urganch, Hazorasap, Xonqa va boshqa shaharlarda jadidlar va ularni qo'llagan fuqarolar qancha bo'lganini tasavvur qiling! Zero, bu shahar va kentlarda ko'plab madrasalar, yangi jadid maktablari faoliyat yuritgan.

Boshqa viloyatlardan farqli ravishda, xorazmlik jadidlar vaqtli nashrlar chop qilmagan, o'z g'oyalarini amaliy faoliyatlarini orqali targ'ib qilgan. Hali axborot vositalari kam va hatto mavjud bo'lmagan sharoitda jadid harakati qisqa muddatda keng yoyilgani va eng olis qishloqlargacha yetib borganiga sabab nima? Buni jadidlar ilgari surgan g'oya-maqсадlarning oddiy xalq orzusi va ruhiyatiga to'la mos tushgani bilan izohlash mumkin.

Bir tarafdin Chor Rusiyasi markaziy shaharlarida paydo bo'lgan yangicha firqa va sho'balar – sotsial demokratlar, eserlar va bolsheviklar Turkistonda ko'chirima qilinib, ular o'z vaqtli nashrlarini yashirin yoki oshkora chop qilib, xalq orasida tarqatishga zo'r bergan, bu nashrlarda jadidlarga qarshi yoppasiga kurash e'lon qilingan bir sharoitda, qo'lida mablag'i ozligidan nashrlari nochor qolgan, hukumat tomonidan qo'llanmagan, aksincha, ta'qib ostiga olingan jadid harakati o'z ta'sir doirasini kengaytirib olganiga qoyil qolish kerak.

Jadidlarning butun faoliyati kontrevolyutsion xarakterga ega edi. 1906-yildayoq jadidlarning rahbarlaridan biri Mahmudxo'ja Behbudiy: "Biz musulmonlar uchun bu partiyyaga kirish (RSDRP) juda katta zarar keltiradi", deb yozgan edi.

Endi 1957-yilda chop qilingan "O'zbekiston SSR tarixi" ikkinchi kitobining "Ijtimoiy-siyosiy fikr va adabiyot" bo'limidan olingan quyidagi iqtiboslarga e'tibor qiling:

"O'rta Osiyoning mahalliy aholisi o'rtasida marksistik falsafaning ta'sirini kamaytirish maqsadida Behbudiy idealistik falsafaning "eng yangi muvaffaqiyatlarini", ya'ni neokantchilik, gegelchilik va maxizmni targ'ib qildi. Shuning

uchun ham jadidlarning agnostitsizm tarafdorlari bo'lganlari tasodifiy emas".

"Jadidlar yangi usuldagi maktablar, vaqtli matbuot va adabiy to'garaklar (bayozlar) yordamida o'z burjua ideologiyasini zo'r berib yoyishga urindilar. Bunda ular, albatta, oddiy mehnatkash xalqqa murojaat qilib, "vatan haqida", "musulmonlar madaniyatining qo'ligi haqida", "Turkistonda yashovchi hamma aholining manfaatlari umumiy ekanligi" va hokazolar haqida gap sotdilar".

"Jadidlarning hamma harakatlari bir maqsadga: mehnatkashlar ongini zaharlashga, ishchi va dehqonlarning sinfiy ongini kuchsizlantirishga, ularning ozodlik harakatini bo'g'ishga qaratilgan edi".

"O'n to'qqizinchi asrning oxiri va yigirmanchi asr boshlarida O'zbekistonda klerikal va burjua-millatchilik ruhida jadid oqimiga qarama-qarshi o'laroq progressiv-ijtimoiy fikr taraqqiy eta boshladi – ilmiy sotsializm g'oyalari tarqala boshladi".

Ko'rinib turibdiki, o'sha davrda boshqa firqa va siyosiy kuchlar jadid harakatini obro'sizlantirishga, ularni odamlarga "olabo'ji" qilib ko'rsatishga uringan. Qoralash jarayoni harakat tugatilib, jadidlar qatag'on qilingach ham davom etgan, soxta ayblovlar tarix darsliklariga kiritilgan. Ammo qatag'onlardan omon chiqqan Masharif, Abdulla buvalar hali o'smir yoshida shuuriga o'rnamagan jadidlarning ezgu g'oyalarini umri oxirigacha kaftdagi cho'g' kabi asrashgan.

Vatan, ozodlik, ilm-ma'rifat tushunchalari egizak kabi yonma-yon keladi. Ilm-ma'rifati inson dunyoni taniydi, zehniyatiga Vatan va ozodlik tushunchalari bir umrga o'rnamadi. E'tiborlisi, maktab-u madrasada sharqona ta'lim olgan, jadid qarashlari bilan ongi sug'orilgan, ularga ergashgan oddiy insonlar yovuz niyatli tuzum yopishtirgan "klerikal", "gegelchilik", "burjua millatchilik", "neokantchilik", "maxizm"... va yana allambalo atamalar nimaligi bilan qiziqmay dunyodan kechishdi. Ular uchun Vatan va ozodlik tushunchalari tanish va aziz, ilm-ma'rifatga intilish ajdodlaridan meros qolgandi.

Bir asr ilgari jadid harakati qanchalik keng yoyilib, yurtimizning eng olis hududlariga qadar kirib borgan, safarlari kun sayin o'sganining tarixiy va ilmiy asoslari shu oddiy misollarda ham yaqqol ko'rinadi.

Ro'zimboy HASAN

Boshlanishi 1-sahifada.

Ammo uni ham “xalq dushmanining qarindoshi” deb qamoqqa olishdi. Men ikki buvim, tog’amning polyak ayoli va uch qizi bilan qoldim.

Achchiq qismatim qasdigami, yurist bo’lishni orzu qilganman. Maktabni tugatib, Toshkent davlat yuridik universitetiga hujjat topshirdim, lekin qabul qilishmadi. Yoshim kichkina, bu sohaga mehnat stajiga ega odam olinishini ro’kach qilishdi. Bu rostmidi, yolg’onmidi, bilmayman, har holda, menga shunday deyishgan. Keyin o’sha paytdagi O’rta Osiyo davlat universitetining sharqshunoslik fakultetiga o’qishga kirdim. Bir yil o’tib “xalq dushmani”ning qizi ekanimni bilib qolishdi. Ariza yozdirmoqchi bo’lishdi, yozmadim. Ammo to’ng’ichim betoblanib o’qishga bora olmay qolganimdan foydalanib, haydashdi.

Keyin turmush o’rtog’im hujjatlarimni Toshkent chet tillar pedagogika institutiga olib borib topshirdi. Lekin hujjatlarim ichiga tarjimai holimni kiritmadim. O’qishim tugay deganda rektor chaqirib, tarjimai hol yozib berishimni so’radi. Men “agar uni yozsam,



sizlar meni haydaysizlar, chunki men “xalq dushmani”ning qiziman”, deb yig’lab yubordim. Rektor “kimning qizisan”, deb so’radi. Fitratning farzandi ekanimni bilgach, “Qizim, o’qiyver. Hali ko’rasan, bir kun Fitratni biladilar. Mendan olishsa, shu lavozimni olishar. Seni himoya qilaman”, dedi.

Oliy ta’limda o’qidim ham, qirq yil ishladim ham. Katta o’qituvchi, dekan, prorektor darajasigacha chiqdim. Moskvada o’qib keldim. Keyinroq universitet tavsiyasi bilan Amerika elchixonasiga ishga o’tib, u yerda ham yigirma to’rt yil ishladim. Ikki o’g’il, bir qiz ko’rdim. Qizim bir umr xastalanib yashadi va dunyoni tark etdi. O’g’illarimdan biri Kanadada. Kattasi – Shoahmad esa yonimda.

ODAMIYLIK OLIMI

Fitratning butun borlig’i xislat edi. U nihoyatda mulohazali, og’ir, vazmin kishi bo’lgan. U haqda yodimda qolgan voqealarni ko’p bor gapirib berganman.

Biz yashagan Guliston mahallasidagi hovlimiz yonida bolalar uyi bo’lardi. Kunlarning birida shu yerda rosa ur-to’polon bo’ldi. Yigirma-o’ttiz chog’li bola bir bolani og’zi-

burnini qon qilib urishdi. Otam uyga kelganida, ko’rganlarimni aytib berdim. Bilsam, janjal millatchilikdan chiqqan ekan. Otam: “Ba’zi bir odamlar millat ayiradi. Har doim esingda tursin, hamma millat bir. Odamlar boshqa-boshqa tilda so’zlashishlari, hatto e’tiqodlari boshqa bo’lishi mumkin. Lekin asli – odam. Hech qachon millat ayirmaslik kerak. Bu yaxshi ish emas”, dedi. Ertasi kuni bozorga borib, patefon va ikki plastinka sotib oldi. So’ng o’sha urishgan bolalarni to’plab, menga aytganlarini takror aytdi va kaltaklangan bolaga “o’rtog’laring sendan kechirim so’rashmoqchi ekan”, deya musiqani qo’ydi. Bolalar zavqlanib raqsga tushishdi. Otam mamlakatning ko’zga ko’ringan olimi edi o’sha paytda. Ishi, tashvishi ko’pligiga qaramay, bolalar qalbidan millatchilik degan illatni o’z vaqtida bartaraf etgandi. Umuman, otam bu muassasaga tez-tez chiqib turardi, bolalar bilan suhbatlashardi. Suhbat bahona

iqtidorilarni aniqlab, yonidan mablag’ ajratib, Moskvaga o’qishga yuborardi.

Yana bir holat menga qattiq ta’sir qilgan. Otam qamalishidan oldin uch oy uy qamog’iga olingandi. O’sha paytda talabalar uyimizga kelib imtihon topshirishardi. Bir kuni bir qiz to’rt-besh kitob bilan kirib keldi va kitoblarni stol ustiga ustma-ust terib, yoniga “shpargalka”sini sezdirmay ochib qo’ydi. U ishini o’g’rincha o’qib berdi, otam boshdan oxiri eshitib o’tirdi. Bilsa ham indamadi. Qiz to’xtagach, bir-ikki savol berdi. Javob berolmagachi, “yaxshi tayyorlanibsiz, lekin yana ozgina o’qing”, dedi. “Ko’chirma”dan foydalanding, deb uyaltirmadi. Bu menga ibrat bo’ldi. Talabalarga “ko’chirma” tayyorlagan bo’l-sangiz, mayli, uni ishlating. Umuman javob bermay ketgandan ko’ra, ko’rsangiz, o’qisangiz, menga shu muhimroq, derdim.

Otam juda mehribon va oqibatli inson edi. Bir kuni o’rtog’im otam o’lib qoladi, deb yig’lab keldi. Men yugurib kirib otamga aytdim. U yozib o’tirardi. Ishini tashlab, darrov o’rtog’imning uyiga chiqib ketdi. Bir soatlardan keyin kelib, “ana, o’rtog’ingni adasi endi o’lmaydi, qizim”, dedi. Men professorman, ishim ko’p demadi. Ana shunday odamijon edi otam.

Otamni birinchi o’zbek professori sifatida bilishadi. Men esa odamiyligni ham bir ilm ko’raman. Fitrat avvalo, odamiylik ilmining ustodi komili edi.

ONA

Buvimiz Nastarbibim past bo’ylik, kichkina, ko’rimsizgina ayol edi. Opalariga sovchi kelganda ota-onasi u qizining o’rniga bunisini berib yuborishgan ekan. U paytlarda kelin-kuyov bir-birini chimildiqqacha ko’rmagan. Bobomiz buvimga hech ko’ngil qo’yolmagan, shuning uchun otam tug’ilishi bilan bolaniyam, xotinniham tashlab, qayoqqadir ketib qolgan ekan.

Buvin miqti bo’lsa-da, nihoyatda vazmin va ilmiy ayol edi. Tarix va adabiyotni juda yaxshi bilardi. Uyimizda kechki ovqatdan keyin kitobxonlik qilishardi. Otam kitob o’qib, onalari davom ettirardi. Buvinning ovozlari ham juda chiroyli edi. G’azallarni ifodali ijro qilardi. Menga podsholar hayotidan hikoyalari o’qib berardi. “Katta bo’lsam, men ham podsho – mehribon podsho bo’laman”, derdim. Buvim kulardi. “O’shanaqa podsho bo’lish qiyin. Juda mehribon bo’lsa, podsho bo’lmaydi”, derdi.

Otamning bu qadar ma’rifatli bo’lib yetishishida buvimning xizmati katta. U kishining buncha bilimni qayerdan olganini bilmayman. Chunki o’zi haqida hech gapirmas, nihoyatda kavgap edi.

Buvinning ich-ichida bir dodlari bor edi: “Bolamni men badnom qildim”, derdi. Otam Buxoro madrasasida o’qiyotgan chog’ida direktorning qizi ham o’sha yerda o’qigan. Bir-biriga bolalarcha mehri tushgan. Ular ulg’ayishgach, madrasa direktori otamni yaxshi ko’rib kuyov qiladi, o’zi to’y qilib beradi. Lekin negadir endigina farzand ko’rishganida, otamni “e’tiqodsiz” deb ularni ayiradi. Yarashtirish uchun o’rtaga tushganlarga: “Menga Xudoga ishonmaydigan kuyov kerak emas”, deb uzil-kesil gapiradi. Hatto bolani ham otamga ko’rsatishmaydi.

Anchadan keyin u ayol bolasi bilan bir martagina keldi biznikiga. Bir kungina turib qaytib ketdi. O’sha paytda otam maorif noziri edi. O’shanda pul bo’lgan uyimizda. Buvim bu pul maorifga tegishli ekanini bilmagan, keliniga mehribonlik qilib berib yuborgan. Otamni shu masala bilan vazifasidan chetlatishgan. Buvim otamning boshiga tushgan savdolarida o’zini ko’p aybladi, o’sha pulga tegmasam bo’larkan, deb ko’p iztirob chekdi.

Nastarbibim urush yillari dunyodan o’tdi...

ZODAGONIY LATOFAT

Juda-juda ko’hlik edi onam... Uni ikki o’g’ildan so’ng tilab-tilab olishgan. Lekin onam tug’ilayotganida otasi o’pka sili bilan og’ir ahvolda yotgan ekan. Chaqaloq qiz ekanini aytib, ism qo’yishni so’rashganida: “Men ketar ekanman-u, u kelarkan dunyoga, bu ham bir hikmatli Xudo. Ismi Hikmatoy bo’lsin”, debdi.

Onamning savodi yo’q edi. Men shunchalik o’qimishli otamning onamday harf tanimagan ayol bilan qanday yashaganiga haligacha hayron qolaman. Menimcha, onamdagi o’tkir farosat va nozik ta’b otamni sevintirgan.

Onamning xolavachchasi Buxoro amirining xotini bo’lgan. Xon saroyida ularga yurish, kiyinish, ovqatlanish, o’zini tutish sirlari o’rgatilgan. Shuning uchun onamning harakatlari go’zal edi. O’qimgan bo’lsa ham, o’zini aslzodalardek tutardi, chiroyli gapirardi. Ko’chada kim ko’rsa aktrisa deb o’ylardi uni.

Onam shunchalik ozoda ediki, daraxtdan bitta barg tushsa, shuni albatta borib olardi. Agar ovqatlanishga dasturxon tuzsa, guldonda gul bo’lishi shart edi. Tortiladigan idishlar ham



bir xil bo’lishiga e’tibor qaratardi.

Menga nisbatan ham juda talabchanlik qilardi onam. Ba’zan o’zi shu ayol mening onammikin, deb ham o’ylardim. Chunki hali bola bo’lishimga qaramay ko’p tergardi. O’tirganimda, yurganimda sal yelkam qiyshaysa ham, qattiq koyirdi. Ko’pincha iyagimga qo’limni qo’yib o’tirardim, u kishi esa har gal urishganlari urishgan edi. O’rtog’larim loy o’ynashardi, tuproq ko’chalarda oyoqyalang yurishardi. Ularga havasim kelardi. Meni bunday erkinlikka qo’yishmasdi.

Ba’zan otam ishdan kelganida biz biroz ko’chalarni aylanib kelaymiz, deb qo’liga gazeta olardi-da, meni ergashtirib chiqib ketardi. Darvozadan chiqqanimizdan tufilimni yechtirib, gazetaga o’rar, tuproqqa qo’yib yuborardi. Yarim soat-bir soat mazza qilib yalangoyoq yurgizib, oyoqlarimni o’zi bilan olgan lattaga artib, uyga olib kelar edi.

Esimda, qatag’on qilinganlarning qamoqqa tashlangan ayollari ozod etilgach, onam ham uyga qaytdi. Meni yetaklab hovlimizga bordi. Lekin bizning uyimiz Toshkent shahridan o’sha paytdagi bosh arxitektori Bakayevga berilgan ekan. U bizni uyga qo’ymadi. Onam yozda qamoqqa olingan, havo sovib qolgani uchun yupun kiyimda edi. Hech bo’lmasa, kiyimlarimni olay, deb yolvordi. Bakayev “kiyim-kechagingini ham olib ketishgan. Hoziroq bu yerdan jo’na, endi bu uy meniki. Agar qorangani o’chirmasang, militsiyaga berib, seni yana turmaga tashlataman”, dedi. Onam “turma”, “militsiya” degan so’zdan shunchalik qo’rqib qolgan ediki, jon holatda qo’limdan tutdilar-u, tramvay yo’ligacha to’xtatmay yugurtirib keldi.

Onam tez ozod etildi, lekin unga pasportini qaytarishmadi. Hujjatsiz yashadi bechora. Saidahmad tog’amning uyida uning oilasi bilan yashadik. Onam 74 yoshida vafot etdi.

“ODAMI KALON”

Otam Fayzulla Xo’jayevnikiga tez-tez borib turardi. Har safar “menam boraman”, deb ergashardim. Lekin otam unamas, “u kishi odami kalon”, derdi. Odami kalon deganlariga Fayzulla Xo’jayevni juda katta gavgali odam deb o’ylardim. Bola bo’lganman, vazifasi, mavqeyi kattaligini tushunmaganman. U kishi o’sha paytda Xalq Komissarlari Soveti raisi lavozimida ishlarkan.


Ularining uyi Oloy bozorining yonida edi. Hovlining tashqisida Fayzulla Xo’jayev onasi bilan, ichkisida ukasi Ibdoxo’ja onasi bilan yashar edi. Ya’ni, ikki kundosh ayol bir hovlida turishardi.

Fayzulla Xo’jayev Moskvaga o’qishga borganida boshqa millatga mansub aktrisa bilan oila qurgan. Ular qizli bo’lishgan. Lekin Fayzulla Xo’jayev Toshkentga qaytar mahalida u ayol O’zbekistonda teatr yo’q, men teatsiz yasholmayman, deb kelmagan. Onam o’sha ayol haqida bir marta gapirganlari esimda. Biroq otam millatchilikka har doim qarshi bo’lganidan, “qo’ying, kim bilan oila qilish har kimning ixtiyori”, deb bu haqda gapirishga qo’ymagandi.

Otam bilan Fayzulla Xo’jayev o’rtasida juda chuqur hurmat va yaqinlik bor edi. U ota tomonidan badavlat oiladan bo’lsa-da, onasi faqirning qizi bo’lgan. Ehtimol, shuning uchun ham Fayzulla Xo’jayev kambag’allarni ko’p o’ylagan, ular uchun maktablar ochish kerakligini idrok qilgan bo’lsa kerak. Uning ikki o’g’li, bir qizi bor edi. Avlodlari ham bo’lsa kerak, albatta. So’ng qiyinchiliklar bilan bo’lib, bordi-keldilarimiz uzilib ketgan.

BIR SURAT HAJRIDA

Otam oqlanganidan keyin hozirgi kungacha juda ko’p jurnalist keldi. Men uchun g’oyat qadrlri bir surat bor edi. Tog’amning uch qizi – Tojibar, Layli, Gulchehra bilan birga tushgan bu suratni menga KGBdan berishgandi. Suratning orqa tomoniga “Дети фашистов” deb yozilgan ekan. Bu yozuvni har ko’rganimda yuragim uzilardi. Uni u yoqqa chiqaramiz, bu yoqqa chiqarishimiz kerak, deb kimdir oldi-yu, qaytib bermadi. Yo’qolib ketganiga dilim og’riydi. Mabodo, qaysidir tahririyat yo nashriyotlarning arxivida bo’lsa, qaytarib berishsa, 98 yillik umrimning eng masrur damlarini eslatganday bo’lishardi...



Ba’zan ma’lumotlarni xato e’lon qilishadi. Bir jurnalist ayol hattoki, gazetaga meni Fitratning xotini deb berib yuborgan. Qancha kitoblar chiqdi, ba’zilarida ko’p xatoliklar bor. Axir tarixku, bu. Inson hayotini yozayotganda, ommaga e’lon qilayotganda ehtiyot bo’lish kerak.

BOBO IZIDAN...

O’g’lim Shoahmad ToshDUning fizika fakultetini va Chet tillar institutini tugatdi. Ko’p yillar Fanlar akademiyasi Yadro fizikasi institutida ishladi. Yuzdan ortiq ilmiy-publitistik maqola yozdi, tarjimalar qildi. Nabilam Layli “Umid” fondining ilk qaldirg’ochlari safida Amerikada o’qidi. Evaram Mumtoz Germaniyada bioinformatika sohasida tahsil oldi. Hozir Myunxendagi “Isotop Technologies Munich” kompaniyasida IT loyihachisi bo’lib ishlayapti. Laylining o’g’li Farruhbek Amerikaning Kanzas universitetida faoliyat olib borib, doktorlik himoyasiga tayyorlanmoqda.

Xudoga shukur, Fitratning chirog’i o’chmadi.

Muhayyo RUSTAM qizi yozib oldi.



Ushbu QR-kodni skanerlang va suhbatni YouTube da tomosha qiling.



“Tarix ilmi o’tgan qavmlarning umumiy ahvolini bizlarga ibrat va dasturlamal qilib naql va muhokama etadi.

Abdurauf FITRAT

JAHON AYVONIDA

KOSMOSDAGI HARBIY HARA-KAT
Yevropa kosmik agentligi (ESA) o’zining ishtirokchi davlatlaridan kelgusi uch yil uchun 22 mlrd yevro miqdorida moliyalashtirishni so’radi.



Uning byudjeti sezilarli oshishi, jumladan, Yevropaning kosmosdagi harbiy mavjudligini kuchaytirish zarurati bilan bog’liq. 1975-yilda fuqarolik tashkiloti sifatida tuzilgan agentlik ilk bor mudofaa loyihalariga murojaat qilmoqda.



EKOLOGIK FAOLLARGA JARIMA


Germaniyaning Hamburg sudi “Oxirgi avlod” deb nomlanuvchi radikal ekologik harakatning 10 nafar faolidan iborat guruhga 2023-yil iyul oyida Hamburg aeroporti ishini izdan chiqargani uchun 403 ming yevro miqdorida jarima to’lash majburiyatini yukladi.

Agar ular bu summani to’lay olmasa, ozodlikdan mahrum etilishi mumkin. Da’vogar sifatida “Lufthansa” aviakompaniyasi chiqdi.

HITLER YANA SAYLANADIMI?

Germaniyaning sobiq mustamlakasi bo’lgan Namibiya davlatidagi hududiy

saylovlarga tayyorgarlik jarayonida nomzodlardan biri doimiy ravishda jazon ommaviy axborot vositalarining e’tiborini tortmoqda.



Gap hukmron SWAPO partiyasidan Ompunja okrugining amaldagi vakili – Adolf Hitler Uunona haqida ketmoqda. Uning g’alati ismi doimiy ravishda jahon matbuoti e’tiborini tortadi.

KASPIY BO’LINMOQDA

Olimlar Kaspiy dengizi ikkiga ajralishi mumkinligidan ogohlantirdi. Kavkaz tog’lari o’sishda davom etmoqda va aynan shu tektonik faollik suvning chekinishiga ta’sir ko’rsatayotgani ta’kidlanayapti.



Ozərbaycan Fanlar akademiyası Geografiya instituti xodimlarining aytishicha, Kaspiy dengizidagi suvning chekinishi vaqtinchalik hodisa emas, balki mintaqa qiyofasini o’zgartirishi mumkin bo’lgan keng ko’lamli jarayonlarning bir qismidir.

TARMOQLAR CHEKLOVI



Malayziyada ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish qoidalarini jiddiy o’zgartirishga tayyorgarlik ko’rilyapti.

Mamlakat hukumati 16 yoshga to’lmagan shaxslarga ijtimoiy tarmoqlarda akkaunt olinishi taqiqlash rejasi e’lon qildi. Yana 2026-yildan kuchga kirishi kerak.

YANA “HINDISTON SIROP”



Hindistonda yo’talga qarshi sirop oqibatida kamida 24 nafar bola vafot etdi. “Coldrif” siropini ichgan bolalarda o’tkir buyrak yetishmovchiligi kuzatilgan.

Hindiston hukumati sirop ishlab chiqaruvchiga tarkibiy qismlardan birini yetkazib berishda xavfsizlik qoidalarini buzilganlik ehtimolini o’rganyapti.

Bahodir KARIM
a fanlari doktori
professor

MILLAT FIDOYILARI

Mashhur tarixchi va adib Nikolay Karamzinning tarix haqida shunday gapi bor: “U kafanlarni yulqib, oʻliklarni uygʻotuvchi, dillarga hayot qonini quyuvchi, tullaarga soʻz baxsh etuvchi, kunpayakun saltanatlarini qayta yaratuvchi, oʻtib ketgan asrlar silsilasini butun hayajon-u atvori bilan koʻz oʻngimizda namoyon etib, hayotimiz sarhadlarini kengaytiruvchi moʻjizadir. Uning maʼnaviy qudrati ila biz barcha kechmish zamonlarning odamlariga hamdam-u hamnafas boʻlamiz”.

Ha, biz ham har gal qatagʻon qurbonlari haqida soʻz yuritir ekanmiz, oʻsha davrning ogʻir nafasini yurakdan his qilamiz. Nohaq jabrlangan millatdoshlarimizning taqdirini oʻylab qaygʻuramiz. Bugungi qahramonimizning taqdiri ham shunday qaygʻulidir.

Nabirxoʻja Saidxoʻjayev 1879-yili Toshkent shahrida diniy xizmatchi oilasida tugʻiladi. Dastlab mahalliy madrasada xat-savod chiqarib, bilimga chanqoqligi bilan ustozlar eʼtiborini qozonadi. Iqtidori va intilishi teng-toʻshlari qatori uni ham Buxoro sari boshlaydi. Bu davrda Buxoroda qadimchilar va jadidlar oʻrtasidagi qarashlar toʻqnashuvi ayni keskinlashgan mahal edi. Masalan, taraqqiyparvar va maʼrifatparvar muallim, noshir, xattot va shoir Abduvohid Munzim oʻsha paytlarda oʻz uyida tojik tilida dars beruvchi ilk usuli jadid maktabini ochadi. Biroq bu xayrli ish eski tartib tarafdori boʻlgan qadimchilarning tazyiqiga uchraydi. Mulla Qamar, Mulla Xolmurod, Mulla Abdurasul Zakun, Mulla Abdurauf kabi mudarrislar ulamolar vakili sifatida qushbegidan maktabni yopishni qatʼiy talab qiladi. Maktab yopib qoʻyilsa-da, jadidlarning gʻayrati zarracha soʻnmaydi.

Oʻsha yili iqtidorli yoshlarni aniqlash hamda ularni xorijda


HO‘L-U QURUQ BAROBAR...

oʻqitishni moddiy va maʼnaviy qoʻllab-quvvatlash maqsadida “Tarbiyayi atfol” (“Bolalar tarbiyasi”) jamiyati tuziladi. Jamiyatning Ter-miz, Karki, Yangi Buxoro va Gʻijdu-vonda 28 ta boʻlinmasi boʻlib, ular amirlik hududidagi iqtidorli yosh-larni aniqlab, Istanbul, Orenburg, Ufa, Qozon, Bogʻchasaroy kabi shaharlarga oʻqishga yuborar edi. Jamiyat tarkibi Buxoro jadid-larining yorqin namoyandalar-i Sadriddin Ayniy, Ahmadjon Hamdiy, Hamidxoʻja Mehriy, Hoji Rofe, Mukammal Burhonovdan iborat edi. Shuningdek, jamiyat Buxoroda ilk bor jadid maktablarini darslik va oʻquv qoʻllanmalari bilan taʼminlovchi “Maʼrifat” shirkatini ochadi, qisqa fursat boʻlsa-da, oʻzbek tilida “Turon”, “Buxoroyi sharif” gazetalarini chiqarishga muvaffaq boʻladi, nashrlar butun Turkiston oʻlkasida shuhrat va eʼtibor qozonadi.

...1914-yili qadimchilarning urinishi bilan Buxoroda ikkinchi marta jadid maktablari yopi-ladi. Hukumat va qadimchilar-ning doimiy qarshiligiga qaramay, Buxoro jadidlik harakati 1915-yilga kelib shiddat bilan rivojlanib, siyosiylasha boshlaydi. Jadidlar endi faqat madaniy islohotlar bilan emas, qonunchilik, savdo-sotiq, qishloq xoʻjaligi, soliq-larni tartibga solish boʻyicha talablar bilan ham maydonga chiqadi.

Nabirxoʻja Saidxoʻjayev shu muhitda Buxoroda olti yil tahsil oladi. Yosh ziyoli sifatida jadidlar harakatini shaxsan kuzatadi. Ilm qiymati, dunyoviy fanlarning ahamiyati, jamiyatni taʼlim bilan isloh qilish zarurligi haqidagi bahs-u munozaralarga guvoh boʻladi. Taʼqiblar natijasida maktablar yopi-lib, gazeta nashrlari toʻxtatilgan boʻlsa-da, jadidlarning taʼlim islohi-dan chekinmay, yanada olgʻa

intilishi qahramonimizda maktab oshish istagini paydo qiladi. U Toshkentga qaytib, Qoryogʻdi mahallasida maktab ochadi va 1916–1921-yillarda oʻqituvchilik qiladi. Bu paytda qahramonimiz



Nabirxoʻja Saidxoʻjayev (1879–1937)

momosi bilan yashar, ota-onasi vafot etgan edi.

Toshkentdagi faoliyati uni din arbobi va maʼrifiy shaxs sifatida elga tanitadi. 1921–1928-yillar-da Qoryogʻdi masjidda imomlik qiladi, Markaziy diniy madrasalar boshqarmasiga qarashli Xoʻja Ahror va Eshonqul madrasalarida dars beradi. Bilim doirasi kengligi, oʻzbek, arab va fors tillarini mukammal bilishi bois, taʼlim sohasida obroʻsi oshib boradi. 1928–1931-yillarda Valihoji va Shayx Zaynuddin ota masjidlari-da imomlik qiladi. Shu bilan birga, boʻsh vaqtini turli jamoat ishlari-ga bagʻishlab, “Turkiston ipagi” tashkiloti bogʻida xizmat qiladi.

Sovetlar zamonida diniy ulamo-larga ayniqsa qiyin boʻlgani tarixdan yaxshi maʼlum. Bu haqda tarixchi olimlardan biri shunday yozadi: “1928-yildan mamlakat boʻylab “xudosizlar” jamiyatlari tashkil topib, barcha diniy muassasalarga ayov-

siz hujum boshlandi. Din peshvo-lari – muftilar, imom xatiblar, qorilar, boshqa ulugʻ zotlar, shuningdek, shajarali sayyidlar avlodlari fuqarolik huquqidan mahrum etildi va qattiq taʼqib ostiga olindi. Mol-mulki tortib olinib, oʻzlari uzoq oʻlkalarga badargʻa qilindi”.

Oʻsha davrda imomlik koʻp jihatdan jamoat qoʻllab-quvvat-loviga suyangan boʻlsa-da, tergov-larning birida Saidxoʻjayev “aholi tomonidan hech qanday mod-diy yordam koʻrsatilmasdan ham, Abnazir mahallasidagi masjidda xatiblik qilgani” haqida bildiradi. Koʻrinib turibdiki, qahramonimiz bu vazifani maʼnaviy masʼuliyat sifatida qabul qilgan. Shu bois, uning xalq orasida hurmati oshib, eʼtibori kuchayib borgan. Aholining unga ishonchi baland boʻlgan bir paytda, 1936-yilning yozida uning “aholi kun-u tun ishlasa ham oʻzini non bilan taʼminlay olmayapti”, degan soʻzi rasmiy idoralar tomo-nidan iqtisodiy vaziyat tangligi borasidagi mulohaza emas, davlat siyosatiga qarshi chiqish sifatida talqin qilinadi. Shundan soʻng, uning faoliyati jiddiy kuzatuv ostiga olinadi.

1937-yil 7-avgustda OʻzSSR Ichki ishlar xalq komissarligining Davlat xavfsizligi boshqarmasi 4-boʻlim vakili Musin tomonidan tuzilgan ayblov hujjatlarida unga “yirik eshonning oʻgʻli”, “imom-xatib sifatida keng taʼsirga ega”, shuningdek, “Xitoyning Gʻulja shahridagi Shayx Zaynuddin ota qabristonida minglab kishi qatnashgan ommaviy yigʻinlar oʻtkazgan” degan ayblar qoʻyilgan. Shu tariqa tazyiq va bosimlar kuchayib, Saidxoʻjayev 1937-yil 9-avgust kuni hibsga olinadi. Shu bilan uning “ish”i “siyosiy xavfli shaxs” sifatida tergov ixtiyoriga oʻtadi.

Aslida, Saidxoʻjayevning boshiga tushgan bu kulfat oʻsha yillarda butun mamlakat boʻyicha yoyilib ketgan qatagʻon toʻlqinining bir qismi edi. “Qatagʻon qurbonlari” kitobida (“Sharq” nashriyoti, 2-jild, 2007-yil) keltirilgan quyidagi maʼlumotlar ham oʻsha davrning qattol siyosati, xalq boshiga tushgan fojiali jarayon-larni yaqqol ochib beradi: 1937-yil 14-oktyabrda Davlat xavfsizligi leytenanti Yakovlev imzolagan 24-sonli bayonnoma asosida 182 kishi otuvga, yetti kishi 8–10 yillik mehnat-tuzatuv lagerlariga hukm qilingan, faqatgina 1 nafar kishini qamoqdan ozod etishga qaror qilingan. Qatagʻonga uchraganlar tarkibiga nazar tashlaymiz: 101 sobiq “kulak”, 3 nafar oʻrtahol aholi vakili, 30 nafar imom, eshon, qori va domla, 3 nafar ishchi hamda 33 nafar xizmatchi va rahbar xodim...

Mana shu 182 nafar shaxs orasida 4574-sonli ish boʻyicha otuvga hukm qilingan Nabirxoʻja Saidxoʻjayevning ham nomi bor ediki, bu hol uning taqdirini umumiy fojia bilan bogʻlaydi. Afsuski, Nabirxoʻja Saidxoʻjayev haqidagi maʼlumotlar yillar davomida maxfiy arxivlarda saqlanib kelgani bois keng ilmiy muhokamalarga kiritilmay qoldi.

Qadimgi yunon tarixchisi Polibiy: “Oʻtmishni bilish boshqa har qanday fanlardan koʻra kishilarga tezroq foyda keltirishi mumkin, tarixdan olingan saboqlar maʼrifatga boradigan eng toʻgʻri yoʻldir”, deb bejiz taʼkidlamagan. Nabirxoʻja Saidxoʻjayev singari fidoyi insonlar oʻz hayot yoʻli bilan bizga mudom saboq beradi. Binobarin, tarixga nazar tashlash orqali oʻzimizni, oʻzligimizni teran anglay boshlaymiz.

Rustambek SHAMSUTDINOV,
tarix fanlari doktori,
professor



QATAGʻON QURBONLARI

(Davomi. Boshlanishi oʻtgan sonlarda).

Ergash Yoʻldoshev (Shavqiy) — 1910-yili Namangan shahrida tugʻilgan, millati oʻzbek. Yoshlar ittifoqining sobiq aʼzosi, hibsga olinishidan avval Toshkentning Sebzor qismida istiqomat qilgan. Mashhur shoir Abdulhamid Sulaymon oʻgʻli Choʻlponning sovetlarga qarshi ruhda yozgan sheʼrlari muxlisi boʻlgan Ergash Yoʻldoshevning oʻzi ham sheʼrlar bitgan. 1929-yil dekabrda “Turkistonni ozod qilish jamiyati”ni tashkil etishda faol ishtirok etgan, sovetlarga qarshi aksilinqilobiy targʻibot olib borganlikda ayblanib 1930-yil 17-oktyabrda OGPU (Birlashgan davlat siyosiy boshqarmasi)ning Oʻrta Osiyo “uchligi” qarori bilan 5 yil mehnat-tuzatuv lageriga hukm qilingan.

Muhsid Siddiqov — 1912-yil Toshkentda savdogar oilasida tavallud topgan. Millati oʻzbek, partiyasiz. 1929-1930-yillarda Lenin nomidagi maktabda oʻqigan. Hibsga olingunga qadar Koʻkcha mahallasi, Saqichmon koʻchasi 15-uyda yashagan. Akasi Sanjar Siddiqovning gʻoyaviy, siyosiy taʼsiri ostida “Turkistonni ozod qilish jamiyati”ni tashkil etishda qatnashgan-likda ayblanib, 1930-yil 17-oktyabrda Birlashgan davlat siyosiy boshqarmasining Oʻrta Osiyodagi “uchligi” qarori bilan 3 yilga mehnat-tuzatuv lageriga hukm qilingan.

Nigʻmatulla Nuriddinov — 1910-yilda Toshkentda tabib oilasida tugʻilgan. Lenin maktabini tamomlagan. “Turkistonni ozod qilish jamiyati”ga asos solganlikda va aksilinqilobiy targʻibot olib borganlikda ayblanib, 1930-yil 17-oktyabrda Birlashgan davlat siyosiy boshqarmasining Oʻrta Osiyodagi “uchligi” qarori bilan 5 yilga mehnat-tuzatuv lageriga hukm qilingan. 1937-yil 14-avgustda Ichki ishlar xalq komissarligi qoshidagi “uchlik”ning qarori bilan OʻzSSR Jinoyat Kodeksining 66-moddasi 1-bandi boʻyicha ayblanib, 10 yil Volga mehnat-tuzatuv lageriga hukm qilingan.

Maʼsis Murodov — 1912-yil Toshkentda mudarris oilasida tavallud topgan. Millati oʻzbek. Hibsga olinishidan avval topografiya kurslari tinglovchisi, 1929–1930-yillargacha Lenin nomidagi maktab oʻquvchisi boʻlgan. Aksil-inqilobiy millatchi tashkilotning faol ishtirokchisi boʻlganlikda, otasi Murodxoʻja Solixiy taʼsiri ostida “Turkistonni ozod qilish jamiyati”ga asos solganlikda, “Faryod” nomli sovetlarga qarshi roʻznoma tarqatganlikda ayblanib 1930-yil 17-oktyabrda Birlashgan davlat siyosiy boshqar-masining Oʻrta Osiyodagi “uchligi” qarori bilan 5 yilga mehnat-tuzatuv lageriga hukm qilingan.

Yoqubjon Isaqulov — 1885-yili Andijon shahrida tugʻilgan. 1908-yilgacha maktab va madrasada oʻqigan. 1908-yili Yangiari paxta tozalash zavodida ishchi, soʻngra moddiy yordamchi boʻlib xizmat qilgan. 1916-yilgi milliy ozodlik qoʻzgʻolonida faol qatnashgan. 1917-yil fevral inqilobi davrida jamoat xavfsizlik komiteti aʼzosi hisoblangan. 1918-yil 27-iyunda Andijon eski shahar musulmon kommunistlari firqasi aʼzosi, chorikorlar ittifoqining raisi, 1918-yildan musulmon deputatlari Shoʻrasi raisi oʻrinbosari boʻlgan. 1919-yil 16-oktyabrda uyezd-shahar partiya komiteti raisi oʻrinbosari va keyinchalik raisi, shuningdek, eski shahar partiya komiteti raisi lavozimlarida faoliyat koʻrsatgan. 1922–1923-yillarda Andijon uyezdi boʻyicha paxta va boshqa dehqonchilik ekinlari ekish kompaniyasiga rahbarlik qiladi. 1924-yil 28-fevraldan Turkiston paxtachilik qoʻmitasi raisi buyrugʻi bilan Andijondagi 20-son paxta tozalash zavodiga direktor etib tayinlanadi. 1926-yili 6-mayda Samarqandda hibsga olingan. Shu yil 25–26-may kunlari poytaxt Samar-qandga, respublika GPUsga yuboriladi. 1927-yili 1-martda Oxunboboyev nomidagi teatr binosida sur qilinadi. Sudda Yoqubjon Isaqulov otuvga hukm qilingan. Oʻshanda u endigina 46 yoshni qarshilagandi.

Azizbek MAHKAMOV,
tarix fanlari boʻyicha falsafa doktori
Nigoraxon AKBAROVA,
muzey ilmiy xodimasi
(Davomi kelgusi sonda).

Boshlanishi 1-sahifada.

Shu tariqa, 1917-yil 12-noyabrda Toshkentda turli musulmon firqalari va uyushmalarining birlashgan maslahat qurultoyi boʻlib oʻtadi. Qurultoy “Hokimiyatning askar, ishchi va dehqon deputatlari soveti qoʻliga oʻtishi munosabati bilan Turkiston oʻlka musulmonlari syezdi butun Turkistonning toʻqson sakkiz foizini tashkil qiluvchi oʻn million jon musulmonlar Rossiya inqilobi vaʼda etgan ozodlik, tenglik va birodarlik asosida milliy-madaniy oʻz taqdirini oʻzi belgilash huquqiga ega deb topadi”, degan mazmunda qaror qabul qiladi. Shundan soʻng, Turkiston oʻlkasida muxtor hukumat barpo etish harakati boshlanib ketadi.

Biroq yuqori idoralarida birorta mahalliy millat vakili boʻlmagan Toshkentday shahri azimda bolshe-viklarning taʼsiri kuchli edi. Shu sababli, erksevar kuchlarning nigohi Xoʻqandga — bir vaqtlar yirik bir xonlik poytaxti boʻlib turgan, 600 dan ziyod masjid, 60 dan ortiq madrasa, 6 ta markaziy bozor, oʻnlab tarmoq bozorlar, 30 dan oshiq sanoat korxonasi, oʻnlab bank, savdo uylari, shirkat va moliyaviy

uyushmalar, eng asosiy bojxona joylashgan, temir yoʻllar chorrahasi hisoblangan, adabiyot, sanʼat va mak-



tablarini yaratgan, aholi nufusi yuz mingdan oshgan Xoʻqandi latifga qaratildi.

1917-yil 26-noyabrda Xoʻqandning Paxta birjasi (eski teatr, hozirgi musiqa maktabi oʻrnida) binosida oʻlka musulmonlarining toʻrtinchi fav-



qulodda syezdi boʻlib oʻtdi. Syezdda poytaxti Xoʻqand boʻlgan Turkiston muxtor hukumati tashkil topgani eʼlon

qilindi. Muxtoriyat idorasi Turkiston xalq boshqaruvi (54 kishi), Turkiston vaqtli Kengashi (32 kishi) va hukumat (45 kishi)dan iborat deb belgilandi. Bu olamshumul (ha, olamshumul, zero, u dunyoda birinchi muxtoriyat hukumati edi) voqeaga bagʻishlab shoirlarimiz tomonlaridan bir qancha taʼrixlar yozildi.

Mazkur taʼrixlar Turkiston Muxto-riyati tuzilgani haqida quyidagi eʼlon — varaqaning hoshiyalariga bitilgan edi:

“YASHASUN TURKISTON MUXTORIYATI!
Turkiston musulmonlarining doʻr-tunchifavqulodda qurultoyi Turkiston oʻlkasida boʻlgʻon xalqlarning xohishlari boʻyinchax buyuk Rusiya inqilobi tarafidan berilgan asoslarga binoan federatsiya asosiga qurulgʻon Rusiya Jumhuriyati ila birlikda qolgʻoni holda, Turkistonni yerlik muxtoriyatli, yaʼni territoriyaliniy aytunumiyalik eʼlon qiladur. Bu muxtoriyatning na suratda vujudga qoʻyilmogʻini yaqin orada yigʻiladurgʻon Umumturkiston xalqining Uchriditelniy Sobra-



Muhammad YAHYOXON XOʻQANDIY,
Qoʻqon davlat muzeyi qoʻriqxonasini ilmiy xodimi

niyasigʻa (Turkiston Majlisi musulmoni)ga tobshuradur.
Shuning ila barobar, Turkiston oʻlkasida ozchilikni tashkil qilgʻon millatlarning huquqlarining har jihat-dan saqlanilmogʻini ham tantanali suratda bayon etadur.
Shahri Xoʻqand. Hijriya 1336, sana 25 safar al xayriya, milodiy 1917-yil 27-noyabr”.
Quyida Turkiston Muxtoriyatining tashkil topishi munosabati bilan bitilgan taʼrixlardan namuna keltiramiz.

TURKISTONDA YANGI DAVLATNI IBTIDOYI ZUHURIGʻA TAʼRIX

Chustlik Domullo Saʼdulloxon Aʼlamdan

Uygʻoning ahhoblar, to chand oʻlursiz masti xob,
Koʻrsatur Xaq oxiri bedorgʻa rohi savob.
Yetdi bir ayyom Haq inʼomidin Fargʻonagʻa
Qilgʻon erdi dabiri oqil hargiz kitob.

Tobqusi oroyish – u tazmin ila koʻb intizom,
Odatan obod boʻlur har mulkkim, boʻldi xarob.
Boʻldi Turkiston elidin musulmin jamʼiyati
Har biri Turonzamin arbobidin bir intixob.

Markaz Fargʻona, dorulmulki Xoʻqandi latif,
Ul jamoat aqlidin tobtı ziyo-i oftob.
Royizan boʻldi hama bu mulkni tadbiri uchun
Kayqubod oʻrniga qoʻymoqchi bu kun Afrosiyob.

Donishi arbob savol ayladi har bobdin,
Bir tarafdin rahm eli aytur edi rangin javob.

Mustabid shohi muvaqqat azlini soʻylar xatib,
Yangi davlatni asosidin qilur erdi xitob.

Bor edim man ham oʻshal majlisda bir kursinishin,
Bir jamoatdin boʻlub erdim u kun noib maob.
Majlisi sargarm notiqlar bari shirin maqol,
Elni hayratgʻa solur bu kasrati bahs-u javob.

Aftoʻnumiya arogʻa soldilar eʼlonini,
Uchr. sobraniyya mustahkam qilur hozo javob.
Ittifoq oʻldi hama majlis eli berdi qaror,
Yerli Muxtoriyatigʻa uchr.da bir soʻz javob.

Ushbu ijmoi saodat tavomi matlubimiz
Qoʻlgʻa kelgʻusi durur, vallohi aʼlam bissavob.
Xatmi majlis oyati Qurʻon ila tobtı kamol,
Boʻlgʻumiz Allohi akbar bu maqosidgʻa mujob.

Shahar xalqi ul kuni ozodlik bayroqini
Koʻrsatib jamʼ boʻldilar, onlarda yoʻq haddi hisob.
Jomei Jannatmakonda Haqqa ayilab iltijo,
Takbir aytib koʻb duolar qildi, boʻlgʻay mustajob.

Aʼlami Chustiyi Saʼdiy nom taxallusim mani,
Yangi davlat ibtidosin ayladim nazmi kitob.
Markazi Fargʻona bu davlat bila boʻlgʻay rafiʼ,
Lafzidin taʼrix olindi, boʻldi beranj-u hisob.

Istadim piri xiraddin yangi davlat taʼrixin,
Zohir oʻlgʻusi deyub, Fargʻonadin berdi javob.

Saʼdulloxon Aʼlam ashʻoridagi taʼrix moddasi “Fargʻonadin berdi javob” jumlasidadir.
Yaʼni, abjad hisobi bilan hijriy 1336-sana (milodiy 1917) kelib chiqadi.



MUSHOHADA

Inson zoti borki, o'z oldiga yorug' maqsadlar qo'yib yashaydi, ularga erishish uchun mudom harakatda bo'ladi. Shunday ezgu orzu-niyatlardan biri – farzand kamolini ko'rishdir. Afsuski, bugungi kunda bu orzuni to'y-hasham, dang'llama imorat, turli rusumdagi avtomashinalar bilan bog'lab tushunadigan, shu maqsadda yelib-yuguradigan avlodga aylandik. Kimo'zarga to'y qilish, yetti mahallaga dong'i yetadigan ma'rakalar o'tkazishni go'yoki qadriyatga, an'anaga aylantirdik.

Ma'lumot o'rinda: Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining tahliliga asosan, yurtimizdagi to'y-xonalarga sarflanadigan o'rtaacha yillik xarajat taxminan 2 milliard 383 million AQSH dollarini tashkil etmoqda.

Ming afsuski, bir kunlik orzu-havas, ikki soatlik to'yni deb yillar davomida to'plagan boylikdan bir kunda mahrum bo'lmoqdami. Yoki to'yga olingan bank kreditini yillab to'lash uchun musofir bo'lib ishlash, halovatdan kechish kabi chorasizlikni o'z xohishimiz bilan zimmamizga olmoqdami. Achinarlisi, dabdababozlik, katta sarf-xarajat yoshlarga baxt-omad olib keladi, saodat kafili bo'ladi, degan aqida shakllana boshladi.

Bu bilan biz o'tmish xatolarini ko'r-ko'rona takrorlayapmiz. Markaziy Osiyo xalqlari tarixi va etnografiyasi, xususan, o'zbek to'y-marosimlari uchun qilinayotgan sarf-xarajatlarning tahlili bilan shug'ullangan taniqli tadqiqotchi olimlardan biri O.Suxareva shunday yozadi: "Bugungi kunda tizimli ravishda davom etib kelayotgan marosimlarga juda ko'p miqdorda pul sarflanishi nafaqat oila, balki butun jamiyatning



ISROF FAQIRLIKKA YETAKLAYDI

iqtisodiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatib kelmoqda, shu sababli, bu sarflar – irratsionaldir (ya'ni tushunarsiz)".

Yo'q, bunday davom etib bo'lmaydi! Biz, o'z foyda-zararini biladigan, uni farqlaydigan ongli mavjudotimiz, axir! Shunday ekan, necha-necha yuz yildan buyon oyog'imizga tushov bo'lib kelayotgan illatlardan, soxta "qadriyatlar"dan voz kechishimiz shart!

Yaqinda ushbu masalaga bag'ishlangan respublika ilmiy-amaliy seminar bo'lib o'tdi. Ochiq fikrlar, achchiq tanbeh va tanqidlariga boy ruhda o'tgan yig'ilishda Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi rahbari Otabek Hasanov davlatimiz rahbarining bu masaladagi o'y-fikrlari, tashvishlarini yetkazarkan, bunday illatlarga qat'iy chek qo'yish vaqti kelgani, buning uchun barchamiz birlashishimiz zarurligini alohida ta'kidlab o'tdi.

Seminar so'ngida barcha taklif, tashabbus va tavsiyalar asosida manfaatdor idoralar hamkorligida umummilliy dastur rejasini ishlab chiqish, shu yurt, shu millat va jonajon Vatan ravnaqi uchun befarq bo'lmagan ziyolilar, "Ma'rifat" targ'ibotchilari, adabiyot va san'at ahli hamda turli soha xodimlarini birlashtirgan katta bir ma'rifat karvoni safarbar etilishi nazarda tutildi. Ular muhtaram Prezidentimizning ezgu g'oyalarini targ'ib etish orqali xalqimiz qalbiga kirib borishni o'z oldilariga oliy maqsad etib qo'yg'anlar.

"Tejog'lining ishi bejog'lik" deb bejiz aytilmagan. Bugun jamiyatimizda kimo'zarga aylanayotgan dabdababozlik, aslida, millatning iqtisodiy salohiyatiga soya soladi. Iqtisodiyotning o'ziga xos qonun-qoidalari, sir-asrorlari borki, ular bilan hisoblashmaslik mushkul vaziyatga, ya'ni faqirlikka olib kelishi tayin. Ularni

mensimaslik esa, nafaqat iqtisodiy salohiyatning yetishmasligi, balki ma'naviy qashshoqlik belgisi ham hisoblanadi.

Bugun yosh avlodga uni qil, buni qilma, deb emas, balki ularga ma'naviyat va moddiyat borasida to'g'ri yo'llarni ko'rsatish barchamiz uchun ham foydali, ham zarurdir.

Masalan, amaldagi "Uy-joy sotib olish uchun fuqarolarga subsidiya to'lash tartibi"ni olaylik. Unga ko'ra, davlat subsidiyasi yordamida uy-joy sotib olishga ariza yuborgan fuqaroning shart-sharoitlari amaldagi tartib talablariga mos kelsa, talabgorga subsidiya xabarnomasi beriladi. Ushbu xabarnoma asosida talabgor agar Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlardan topshirgan bo'lsa – 330 million so'm, Toshkent shahrida esa 420 million so'mgacha miqdorda kredit olish imkoniyati beriladi. Shu bilan birga, davlat tomonidan

boshlang'ich to'lov uchun beg'araz (qaytarilmaslik sharti bilan) 30 million hamda 5 yil davomida kreditning 14 foizdan oshgan bandi uchun imtiyozga ega bo'ladi.


Agar yosh oila mana shu toifaga tushadigan bo'lsa, unda bu imtiyozdan unumli foydalanishlari nur ustiga nur bo'lur edi. Buning uchun, to'yga ketadigan ortiqcha xarajlarni kamaytirib, mablag'ning asosiy qismi yosh oila uchun uy-joy sotib olishga yo'naltirilsa, kifoya! Shunda bir yosh oila doimiy mulk egasiga aylanib, xalqimiz tili bilan aytganda, "vatanli" bo'lib qolarmidi... Zero, atog'li ma'rifatparvar Abdulla Avloniy yozganidek: "Iqtisod deb pul va mol kabi ne'matlarning qadriini bilmakni aytilur. Mol qadriini biluvchi kishilar o'rinsiz yerga bir tiyin sarf qilmas, o'rni kelganda so'mni ayamass".

Keling, shu o'rinda, yana bir statistik ma'lumotga e'tibor qarataylik. Tahlillarga ko'ra, to'y xarajatlari 30–40 foizga qisqartirish orqali o'rtaacha oila jamg'armasini 15–20 foizga oshirish, bank kreditlariga ehtiyojni 10–12 foizga kamaytirish, xizmatlar sektoridagi norasmiy aylanmani 8–10 foizga qisqartirish mumkin ekan. Bu bor-yo'g'i birgina misol, xolos. Bunday misollarni ta'lim, sport va boshqa qator yo'nalishlarda ham keltirish mumkin.

Shu o'rinda, biz, ma'rifat targ'ibotchilarining baralla aytadigan so'zimiz yagona va mushtarak: tejamkor odamning, kamxarj oilaning hayot yo'li – farovonlik. Isrofning oxiri esa faqat va faqat faqirlikdir. Asrlar davomida isbotlangan bu achchiq haqiqatni yana bir bor anglab yetmog'imiz lozim va lubuddir!

Obiddin MAHMUDOV,
Iqtisodiyot va moliya vaziri
maslahatchisi

TILBILIM



QALIN PULI

Qalin puli – uch ming. Ming – qizi uchun. Yana ming – sandig'i, kiygizi uchun.

Xo'sh, yana ming nega? Har lahza senga Sanchib turadigan bigizi uchun.

Erkin Vohidovning hazil tariqasida yozilgan ushbu o'rtligi ming yillik tarixga ega bo'lgan bir an'anani eslatadi. Qalin puli, ya'ni nikoh marosimida qiz uchun kuyov tomonidan beriladigan mol-mulk yoki pul. Qalin puli qadimiy turkiy xalqlarda eng muhim nikoh urfodatlaridan biri sifatida shakllangan. Nega aynan qalin puli? So'zning qalin sifatiga biror daxli bormi?

"Devoni lug'atit turk" kitobida *qalin* shaklida uchrab, *sep, qalin puli* tarzida izohlanadi. Anglashiladiki, bu so'z uzoq yillik tarixga ega. O'zbek tilining etimologik lug'atida ham qalin – nikoh to'yida qiz uchun kuyov tomonidan beriladigan mol, pul deb keltirilgan. *Qalin/qalin* so'zi qadimgi turkiy tildagi qal-/qali fe'lidan hosil bo'lib, "ko'tarilmoq" ma'nosini bildiradi. Ehtimol bu so'z qiz qadriining ko'tarilishi, kelinning jamiyatdagi mavqeyi yuksalishi va kuyov tomonidan ko'rsatilgan e'tibor bilan bevosita bog'liqdir.

O'rxun-Enasoy bitiklarida ham qalin puli berish an'anasi mavjudligi qayd etilgan. Bu esa qadimgi turkiy xalqlarda nikoh, oila va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashda qalin pulining o'rni borligini ko'rsatadi.

Qalliq so'zi ham *qalin* so'ziga begona emas. Hozirgi o'zbek tilida qalliq so'zini bo'lajak kelinga ham, kuyovga ham ishlatishadi. Lekin bu to'g'ri emas. Avvallari unashirilgan qiz "*qalinliq*" deb atalgan ekan. Qalin so'ziga *-liq* qo'shimchasi qo'shilib, *qalinliq* – *qalini to'langan* degan ma'noni anglatgan. Davr o'tishi bilan bu so'z qalliq shaklini olgan. Semantik jarayonlar natijasida esa so'zning asos va qo'shimchadan yasalganligi unutilib, yaxlit so'z sifatida ko'rila boshlagan. Qayliq so'zi ham xuddi shu ma'nodagi so'zning sal boshqacha shakli. Demak, qalinliq so'zi faqat fonetik jihatidan emas, semantik jihatidan ham biron o'zgarishga uchragan.

Qalin, qalinliqdan kelib chiqqan qalliq, qayliq so'zlari etimologiyasiga bir nazar tashlashning o'ziyoq til tarixining murakkab jarayon ekanini yaqqol ko'rsatadi. So'zlar shaklan biron o'zargan bo'lsa-da, ularning tub zaminida qadimiy turkiy xalqlarning nikoh qadriyatlarini yashab kelmoqda.

Iroda RAHMONTALIYEVA

TAQDIMOT

Kuni kecha O'zbekiston Milliy kino san'ati saroyida hamda respublikamizning barcha hududlarida bir vaqtning o'zida XX asrning 20-yillarida Germaniyaga o'qishga yuborilgan, keyinchalik qatag'onga uchragan vatandoshimiz Maryam Sultonmurodovaning hayot yo'li va ayanchli qismati haqidagi "Matonatli Maryam" nomli badiiy-publitsistik filmning ilk umummilliy taqdimoti bo'lib o'tdi.

Taqdimot O'zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar ishlari qo'mitasi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, Yoshlar ishlari agentligi hamda O'zbekiston Mahallalari uyushmasi bilan hamkorlikda tashkil etilgan.

Film namoyishi 25-noyabr – Xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlikni bartaraf etish xalqaro kuni munosabati bilan o'tkazilayotgan 16 kunlik global aksiya doirasida tashkil etilib, ayollar huquqlari va jamiyatdagi o'rni o'rtaacha masalalarda jamoatchilik e'tiborini oshirishga qaratilgan.

HAJV

Yoshlik – tentaklikning bir turi, demish mashoyixlar. Kaminaga ham bu inqirozni chetlab o'tish imkoni bo'lmay, aql tanqisligidan bir muddat yetim yumron kabi xirmon-u shiyonlarda tunab, ko'b xo'riklar ko'rgonim bor. Emdil ul ko'rguliklarga "zed" avlod yo'liqmasun debon, ushbu pandnomani havola eturman.

Hayf, yuz ming hayf ketdi Layloni kutgon kunlarim, Ko'ngli bo'sh ma'shuqa deb ko'zyoshni yutgon kunlarim.

Kechalar uyquq qochib, yulduz sanab to tonggacha, Alah-alah oyoq birla sholchilni otgon kunlarim.

Yana hayf, sirdosh tilab, Solim parangni topgonim, Ham ilmimi xo'r aylabon "Portveyn" torgon kunlarim.

Ul baloxo'r mast bo'lib, shalpayisa gar shudgor aro, Mollavlagi kabi, afsus, paykald yotgon kunlarim.

Zoye ketdi ulpatimni yelkalab eltgonlarim, Bosh bila qoqib eshik, yorin uyg'otgon kunlarim.

Xolis xizmatim haqqiga xotinidan qarg'ish olib, Solimga besh, Layloga o'n qayg'uga botgon kunlarim.

Laylo erga tegdi-ketdi, Solim ichishni tashladi, Yorsiz ham bodasiz o'zni yo'qotgon kunlarim.**

Kulgim-u o'lgim kelar esga tusharsa o'sha payt, Nasiyaga may bermasa kim, mushtlar otgon kunlarim.

Maypurushni(ng) qizin oldim, tinchidi jonim manim, Ibrat o'lsin sizga, Sattor, yo'lni yo'qotgon kunlarim.

Sattor SUROB

Qavs oyining beshinchisida eski hammom muyulishida bebaldoq paqir ko'targan ro'dapo Layloga ko'zim tushib, eski sevgimga qalim achib, ko'z-yoshim abri nayson bo'lib, simyog'ochga suyanib yozib qo'ydim.

MATONATLI MARYAM QISSASI



Aytish joizki, film premyerasida qatnashgan tomoshabinlarning aksariyati yoshlar bo'ldi. E'tiborlisi, postanovkachi rejissyor Umrbek Ro'zimovning o'zi ham 23 yosh bo'lib, ushbu kartina ustida uch yil ishlaganini ta'kidladi. Demak, yoshlar nigohi bilan suratga olingan san'at asari yosh auditoriyaga singishi oson kechadi.

Tomoshadan so'ng yangragan qar-saklar film ijodkorlari: ssenariy mualliflari Ro'ziboy Qulmatov, Shoyim Bo'tayev, postanovkachi operator Dilmurod Turdi-boyev, rassom Jamshidbek Maxsumov, film badiiy rahbari va prodyuserlar

ko'zlagan maqsadlariga erishganlaridan dalolatdir.

Bosh rollar ijrochilari Dilnoza Kubayeva, Diyora Olimova, Behzod Shoymatov, O'lmas Temur, Bobur Aytma-g'ambetov va boshqalarning mahoratini ta'kidlash o'rinni.

O'zbek ayolining sabr-bardoshi, matonati, mehr-muhabbati, ilmparvarligi, haloligi, bolajonligi va nomusi haqidagi mazkur film oltin fondimizdan munosib o'rin topishiga ishonamiz.

G. FAYZIYEVA

KUNLARIM



* Yo'qsullarni tinchitmakka qasddan o'ylab topilgan arzon sharob turi.

** Mashrab boboga ishora.

Jadid
adabiy, badiiy va ijtimoiy fanlari gazeta

Muassislar:



**O'ZBEKISTON
YOZUVCHILAR UYUSHMASI**



**RESPUBLIKA MA'NAVİYAT
VA MA'RIFAT MARKAZI**



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
FANLAR AKADEMIYASI**



**MILLIY MASS-MEDIANI
QO'LLAB-QUVVATLASH
VA RIVOJLANTIRISH
JAMOAT FONDI**



**"SHAHIDLILAR XOTIRASI"
JAMOAT FONDI**

Bosh muharrir:
Iqbol Mirzo

Mas'ul kotib:
Shuhrat Azizov

Navbatchi muharrir:
Akmal Jumamurodov

Sahifalovchilar:
Erkin Yodgorov
Nigora Tosheva

Muallif fikri tahririyat fikri bilan mos kelmasligi mumkin.

Tahririyatga yuborilgan maqolalar muallifga qaytarilmaydi va ular yuzasidan izoh berilmaydi.

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 195115 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Adadi – 18 761

Shundan:

Kirill yozuvida – 7 119

Lotin yozuvida – 11 642

Media kuzatuvchilar – 68 475

Buyurtma: G – 1140.

Hajmi: 4 bosma taboq, A2.

Nashr ko'rsatkichi – 222.

Tashkilotlar uchun – 223.

1 2 3 4 5 6



Manzilimiz:

Toshkent shahri,

Shayxontohur tumani,

Navoiy ko'chasi, 69-uy

Telefonlar:

Qabulxona: (71) 203-24-20

Devonxona: (97) 745-03-69

jadidgt@mail.ru (71) 203-24-17

Jadid_gazetasi@exat.uz

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi.

Bosmaxona manzili:

Toshkent shahri,

Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqti: 21:00

Bosishga topshirildi: 20:00

Sotuvda narxi erkin.



www.jadid.uz